

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2023-yil 29-sentabr, №39 (3049)



BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI



1-OKTABR

*O'qituvchi va
murabbiylar
kuni*

...So'nggi nafasim qolguncha o'z Vatanimning sadoqatli farzandi bo'lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqati va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirni saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman. Jonajon O'zbekistonimning nurli istiqboli uchun uning davlat manfaatlari va mustaqilligining munosib himoyachisi bo'lishga qasamyod qilaman...

OR-NOMUS, SADOQAT, JO'MARDLIK SO'ZI



Erta tongdan Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalari hududi bayramona ko'rinish olib, kursantlikka qabul qilingan yuzlab yoshlarning Vatanga qasamyod qabul qilish marosimida ana shu or-nomus, sadoqat, jo'mardlik so'zlari tinchligimiz garovi sifatida yangragani shubhasiz. Ota-onalari, yaqin qarindoshlari, yor-u do'stlari, komandirlari qarshisida Vatani himoya qilishga, xalqimizga va Prezidentimizga sodiq bo'lishga ont ichgan bo'lg'usi ofitserlar o'z hayot yo'lining yangi pog'onasiga qadam tashladi.

Qarshi, Chirchiq, Toshkent shahri hamda Toshkent viloyatidagi tantanali tadbirlarda mudofaa vazirligining birinchi o'rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov, mudofaa vazirligining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Aloqa, axborot texnologiyalari va axborotlarni himoyalash bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Baxrom Urmanov, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondoni o'rinbosari polkovnik Davron Usmonov, Mudofaa vazirligi Jamoatchilik kengashi a'zolari, harbiy xizmatchilar, kursantlik libosini kiygan yoshlarning yaqinlari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar kursantlik hayotiga qadam tashlagan, ona Vatanni qo'riqlashdek sharaflil kasbni tanlagan bo'lg'usi ofitserlarni Vatanga qasamyod munosabati bilan qutladilar.

Mana, ikkinchi yildirki, Qurolli Kuchlar akademiyasida mazkur oliy ta'lim muassasasi kursantlari bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy tibbiyot akademiyasiga o'qishga kirganlar birgalikda Vatanga qasamyod qabul qilish

tantanalarida ishtirok etmoqda. Joylarda bo'lib o'tgan Vatanga qasamyod marosimlarida keng jamoatchilik vakillari yurtimizda harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan sharoitlar, ularning ijtimoiy himoyasi borasida olib borilayotgan o'zgarishlarni alohida ta'kidlab o'tgan holda, yoshlarning o'qishi va xizmatlariga muvaffaqiyat tiladi.

Kursantlar davlatimizning muqaddas ramzi bo'lmish bayroq qarshisida buyuk ajdodlarning pok ruhlarini hurmat, Vatani oldidagi burchini halol bajarishga bel bog'lab, vijdoni, or-nomus hamda sha'nini o'rta qo'yib, O'zbekiston Respublikasiga, xalqiga va Prezidentiga bir umr sodiq bo'lishga, har qanday mashaqqatli sinovlarda, qiyinchiliklarda el-yurtning yuksak ishonchini oqlashga yaqinlari hamda keng jamoatchilik guvohligida ont ichdi. Qisqa qilib aytganda, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, O'zbekiston oliy harbiy aviatsiya bilim yurti va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida yuzlab yoshlar qasamyodiga bag'ishlangan tadbirlar minglab yurtdoshlarimizga unutilmas bayramona kayfiyat ulashdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida o'nga yaqin qarindoshi qurshovida turgan kursantning yaqinlaridan birini suhbatga tortdik.





– Kechirasiz, o'zingiz va yaqinlaringizning bunchalik quvonchiga sababchi bo'lgan kursant yigitimizni tanishtirsangiz.

– Andijon viloyatining Marhamat tumanidan keldik. Men Avazbek Emazarov nafaqadagi podpolkovnikman. Uzoq yillar davomida Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilib, yaqinda pensiyaga chiqdim. Bu esa hozirgina tantanali tarzda Vatanga qasamyod qabul qilgan jiyanimiz Otabek Turg'unboyev.

– Demak, siz uchun Vatanga qasamyod qabul qilish jarayoni notanish

emas. Oradan uzoq yillar o'tgan bo'lsa-da, qasamyod tantanasini va uning so'zlarini unutmagan bo'lsangiz kerak.

– Albatta, unutganim yo'q. Ayniqsa, xizmat faoliyatim davomida "...So'nggi nafasim qolguncha o'z Vatanimning sadoqatli farzandi bo'lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqati va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirni saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman..." degan jummalarni o'zimning hayotiy shiorim sifatida ko'z oldimdan ketkazmadim. Ishonch bilan aytamanki, bugun Vatanga qasamyod qabul qilgan barcha kursantlar o'z so'zida sobit turib, ona Vatanni qo'riqlashga munosib hissa qo'shadi...

Biz Toshkent, Qarshi, Chirchiq va Toshkent viloyatida bo'lib o'tgan tadbirlar davomida o'z sulolasi an'anasining davomchilarini ham, harbiy sohaga ilk bor kirib kelayotgan yoshlarni ham uchratdik. Ularning

barchasi yurtimiz tinchligini qo'riqlashdek ezgu maqsad yo'lida xizmat cho'qqisining yuqori pog'onalarini zabt etishga bel bog'lagan. Shu kuni Vatanga qasamyod qabul qilgan kursantlardan biri Islom Omonov ona zaminimizni quyidagi to'rt qator she'rda ifodalagandek, bir umr ardoqlab qolishadi, deya ishonch bilan ayta olamiz:

*Ona Vatan istiqlolning nurga to'lgan oshyonisan,
Bu olamni lol aylagan ajdodlarim makonisan.
Shon-shavkatli sohibqiron Amir Temur bobom o'zing,
G'animlardan qasos olgan ul To'maris momom o'zing.*

Asror RO'ZIBOYEV,
«Vatanparvar»



Mudofaa vazirligiga qarashli Markaziy harbiy okrugning “Forish” tog’ poligonida intensiv sinovlardan iborat “Dovyurak jangchi” farqlovchi nishoni uchun mard va jasur, matonatli, mustahkam iroda sohiblari bellashdi.



SUVDEK SHIDDATLI,

(o‘ziga ishonganlar bellashuvi)

“Dovyurak jangchi” farqlovchi nishoniga da’vogarlar sinovlardan o‘z bo‘linmasi yoki vaqtinchalik tashkil etilgan yig‘ma bo‘linma tarkibida o‘tadi. Bunda har bir yig‘ma bo‘linma tarkibi 20 kishidan oshmasligi lozimligi ham inobatga olindi. Intensiv sinovlardan o‘tishda harbiy xizmatchilarni kuzatish uchun har 5 nafar ishtirokchiga 1 nafardan yo‘riqchi biriktirildi. Ushbu yo‘riqchilar o‘ziga biriktirilgan



Eng avvalo, intensiv sinov – harbiy xizmatchilarning jismonan baquvvatligini, chidamliligini, ekstremal sharoitlarda turli jismoniy yuklamalarga ruhiy bardoshlilikini sinash bo‘yicha mashqlar majmui nazarda tutilishini eslatib o‘tmoqchimiz. Intensiv sinov tarkibiga moslashuvchanlik ko‘nikmasi, piyoda yurish (*marsh-yugurish*), ruhiy barqarorlik, kuch mashqlari, yagona to‘siqli yo‘lak, jismoniy tayyorgarlik va ekstremal sharoitlardan o‘tish kabi bir qancha sinovlarni o‘z ichiga oladi. Bunday intensiv sinovlarning harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘tkazilishi o‘zaro sog‘lom raqobat muhitini mustahkamlashga qaratilgan harbiy an‘analarni shakllantirish bilan bir qatorda, yuqori jangovar shayligini ham mustahkamlaydi, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch hissini oshiradi. Qat’iy iroda va ruhiy barqarorlik kabi sifatlarni rivojlantirib, ekstremal sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini oshiradi.

– Harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi va ruhiy bardoshlilikini yanada rivojlantirish, zo‘riqishlarga chidamlilik qobiliyatini shakllantirishda intensiv sinovlarning o‘rni beqiyos, – deydi polkovnik Avaz Azimov. – Ayniqsa, ekstremal sharoitlarda harbiy xizmatchidan ruhiy bardoshlilik, sobitqadamlik, matonat va chidamlilik talab etiladi. Shunday kutilmagan holatlardan betalafot chiqib keta olish uchun ham albatta intensiv sinov tayyorgarliklari muhim rol o‘ynaydi. Zamon talablariga mos ravishda bir harakatdan boshqasiga tezkor o‘tish va mushaklar

zo‘riqishlarini qayta taqsimlash kabi tajribalarni o‘zida shakllantiradi. Intensiv sinovlar uch bosqichda, quyidagi ketma-ketlikda o‘tkaziladi:

birinchi bosqich – kompleks kuch mashqlarini bajarish;

ikkinchi bosqich – 30 km masofaga piyoda yurish (*marsh-yugurish*);

uchinchi bosqich – yagona to‘siqlar yo‘lagida umumiy nazorat mashqini, o‘qotar qurollardan (*avtomat yoki to‘pponcha*) amaliy otish va pichoq uloqtirish mashqlarini bajarish. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, belgilangan shartlarga ko‘ra, kompleks kuch mashqlarini bajarmagan ishtirokchilar intensiv sinovlarning keyingi bosqichida ishtirok etmaydi.

ishtirokchilarning kompleks mashqlarni to‘liq va to‘g‘ri bajarishini nazorat qilib bordi.

Erta tongda boshlangan birinchi kompleks kuch mashqlarida 2 daqiqa davomida 80 marta yuqoriga qarab yotgan holda qo‘llar bosh orqasida, oyoqlar juft qilib uzatilgan dastlabki holatdan tirsak tizzaga tegizilgan holda bukish amallari bajarildi. Bir daqiqa o‘tib, “Vaqt!” ijro buyrug‘i berilgach, ikkinchi daqiqada qo‘llarga tayangan holatga o‘tib, dam olish uchun tanaffus qilmay, tana uzatilgancha qo‘llarga tayanib yotish holatida ularni bukish va to‘g‘rilash amali bajarildi. Navbatdagi mashqda vaqt to‘xtatilmasdan 10-20 metr uzunlikdagi arkasimon ko‘prikdan (*narvondan*) o‘tildi. Kompleks kuch mashqlari yakunlanishi bilanoq ikkinchi bosqichda ishtirokchilar 30 km masofaga piyoda yurish (*marsh-yugurish*) mashqini bajarishga kirishdi. Ushbu mashq tabiiy notekis bo‘lgan hududlarda 15 kg og‘irlikdagi yuk qopi, yelkaga gazniqob va ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalaniish vositasi tashlangan holda bajarildi. Ishtirokchilar startdan so‘ng yig‘ma bo‘linma tarkibida dastlab 10 km masofaga piyoda marsh yurdi, keyingi 10 km





TOG'DEK VIQORLI SHERYURAKLAR



masofani marsh-yugurish bilan amalga oshirdi hamda qolgan 10 km masofani esa piyoda yurish bilan davom ettirdi.

Piyoda yurish va marsh-yugurishni amalga oshirish vaqtida ishtirokchilar shartli dushman tomonidan qilingan kutilmagan hujumga duch keldi. Portlashni imitatsiya qilgan holda, shartli ko'prikdan o'tib, suvli to'siq va zaharlangan, sun'iy va tabiiy to'siqlardan iborat murakkab sharoitli hududlardan oshib o'tish bo'yicha turli taktik topshiriqlarni bajardi.

Marsh-yugurishni amalga oshirish uchun belgilangan umumiy vaqt 1 soat 30 daqiqadan oshmasligi lozimligini bilgan ishtirokchilar holdan toygan bo'lsalar-da, bor kuchlarini ishga solib, marra sari odimladi. Bellashuv shartlariga ko'ra, marsh-yugurish vaqtida ishtirokchilarning ruhiy barqarorligini aniqlash uchun har xil xarakterdagi ruhiy bosimlar o'tkazildi.

Ishtirokchilar uchinchi bosqichda yagona to'siqli yo'laklardan oshib o'tish, o'qotar quroldan amaliy otish va pichoq uloqtirish mashqlarini bajardi. Yagona to'siqli yo'laklardan oshib o'tish mashqini bajarish uchun umumiy 3 daqiqa

vaqt berildi. Mashqni bajarishda ishtirokchilardan barcha to'siqlarni 400 metr masofaga yugurgan holda, xatolarsiz bajarish talab etilardi.

Yagona to'siqli yo'laklardan oshib o'tish mashqi bajarilgandan keyin dam olish uchun 30 daqiqa vaqt ajratildi. Shundan so'ng ishtirokchilar o'qotar quroldan amaliy otish mashqini bajardi. Keyingi shart esa pichoqni istalgan holatda va usulda 2 daqiqa davomida 10 marta uloqtirish edi. Uloqtirilgan pichoqlarning kamida 6 tasi nishonga sanchilsa, mashq muvaffaqiyatli bajarilgan hisoblanadi.

O'ttizdan ortiq shartni o'z ichiga olgan mazkur intensiv sinovlarda har bir jangchi o'z imkoniyatlarini amalda

namoyon etdi. Bo'lib o'tayotgan bellashuvlar oddiy tomoshabin uchun murakkab emasdek tuyulishi mumkin. Ammo vazifalarni belgilangan vaqt oralig'ida bajarish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun avvaldan jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, harbiylarga xos matonat, metin iroda hamda g'alabaga bo'lgan qat'iy ishonch zarur. Bu yilgi "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishoniga loyqligini isbotlashga uringan harbiy xizmatchilarning aksari buning uddasidan chiqdi.

Bellashuv so'ngida bahslarning har bir shartida muvaffaqiyat qozongan ishtirokchilarga "Dovyurak jangchi" ko'krak nishonlari tantanali tarzda topshirildi.

Tadbir so'ngida so'z olganlar mazkur sinovlar milliy armiyamizda yuqori kasbiy va jismoniy malakaga ega harbiy xizmatchilarni tayyorlash, qo'shinlarning jangovar shayligini yuksaltirish yo'lida olib borilayotgan ishlarning amaliy ifodasi ekanini ta'kidladi.

Sherzod SHARIPOV,
«Vatanparvar»



Markaziy harbiy okrug “Kattaqo‘rg‘on” dala-o‘quv maydonida “Eng ilg‘or artilleriya hisobi” musobaqasining uchinchi – final bosqichi bo‘lib o‘tdi.



BIR SNARYAD

Musobaqaning tantanali ochilish marosimi har yilgidan o‘zgacha kechib, unga poligon aholi yashash manzillaridan uzoq bo‘lishiga qaramay, jamoat tashkilotlari vakillari, oqsoqollar, Qurolli Kuchlar faxriylari, o‘quvchi-yoshlar taklif etildi.

Qurolli Kuchlar Bosh shtabi artilleriya qo‘mondoni – artilleriya boshqarmasi boshlig‘i polkovnik F. Igamberdiyev ishtirokchilarni qutlar ekan, jumladan shunday dedi: “Bugungi kunda qo‘shin turlarining qo‘llanilish taktikasi va strategiyasi yanada takomillashtirilib, ularning hamkorligini tashkil etish, jangovar harakatlar va operatsiyalarni artilleriya imkoniyatlaridan kengroq foydalangan holda olib borishning zamonaviy tajribasi chuqur o‘rganilmoqda. Shuning uchun qurolli to‘qnashuvlarning o‘zgarib borayotgan xususiyatini hisobga olgan holda, mutaxassisliklar tarkibi, harbiy fanlarni o‘qitishning metod va texnologiyalari hamda o‘quv dasturlari ro‘yxati doimiy tarzda yangilanib borayotgan hozirgi sharoitda jangovar tayyorgarlik va shaylikni muntazam oshirib borish bizning asosiy maqsadimiz va intilishlarimizning pirovard natijasi bo‘lishi zarur. Bugungi musobaqalar ana shunga poydevor bo‘lsin. Barchangizga muvaffaqiyat va omad tilayman!”

Shundan keyin harbiy xizmatchilar tomonidan tayyorlangan ko‘rgazmali chiqishlar, konsert dasturi namoyish qilindi. Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarning istiqlool uchun kurashgan jadid bobolarimiz timsolida maydonda paydo bo‘lishi va ularning o‘g‘itlari, she‘rlari hamda yoshlarga da‘vatlarini, shuningdek jangovar mashqlardan namunalarni, bolajonlarning qo‘shiq-raqsini yig‘ilganlar olqishlar bilan kutib oldilar.

Barcha harbiy okruglardan kelgan jamoalar keyingi kun erta tongdan dala maydonida o‘z o‘rinlarini egalladilar. Qur‘aga ko‘ra, musobaqaning birinchi va ikkinchi bosqichida g‘olib bo‘lgan Markaziy harbiy okrugning eng kuchli jamoalari birinchi bo‘lib shartlarni bajarishga kirishdi.

Uchuvchisiz uchish apparati mutaxassislari, razvedkachilar, artilleriya olov yo‘naltiruvchilari, hisobchi seksiya komandirlari, haydovchilar tarkibida D-30, D-20 to‘plari, jangovar mashina hamda minomyot hisoblari o‘zlariga birlashtirilgan jangovar texnika vositalarini belgilangan vaqtda jangga tayyorlash va nishonni bexato urishlarini baholash boshlandi. Qisqa muddatlarda markaziylar janubiyarlarga, ya‘ni Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug hisoblari va mutaxassislari o‘quv nuqtalarini bo‘shatdi.

Bu galgi musobaqalarda ofitserlar vazifalarini ham kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar, serjantlar bajardi. Bu real jang holatlari inobatga olinib rejalashtirilgandi.

– Mudofaa vazirligi qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi, ta‘minoti borasidagi o‘zgarishlar, ayniqsa keyingi paytlarda mashqlar va tayyorgarlik jarayonlarining musobaqa tarzida o‘tkazilayotganligi jangovar





BIR NISHON



Muallif suratga olgan

harakatlarni olib borishning yangi usul va uslublarni amaliyotga tatbiq etish, eng ilg'or tajribalarni o'rganish, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik mashqlari dasturlarini o'zlashtirish darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda, – deydi divizion komandiri mayor Nodirbek Ochilov. – Bu yilgi musobaqalarga barcha jamoalar jiddiy tayyorgarlik ko'rgani yaqqol sezilib turibdi. Ular shu davrgacha jangovar otish mashg'ulotlarini “Bir snaryad, bir nishon” tamoyili ostida olib borgan. Bu qoida bugungi musobaqalarning ham bosh maqsadidir.

– Biz, arbitrlar ishtirokchilarning xavfsizlik qoidalariga amal qilishlari, o't ochish aniqligi, haydovchilarning ilonizi yo'l, minamaydon va estakadan olib o'tishini nazorat qilyapmiz, – deydi divizion komandiri mayor Odiljon Adizov. – Bitta o't ochish pozitsiyasida nishongacha bo'lgan ma'lumotlarni korrektirovkachi va razvedkachilar amalga oshiradigan bo'lsa, ikkinchi o't ochish pozitsiyasida ma'lumotlar uchuvchisiz uchish apparatlari orqali yetkazib berilmoqda. To'p komandirlari berilgan jangovar vazifalarni o'z hisobi bilan ofitserlar ishtirokisiz bajarmoqda. Bu ularning mustaqil faoliyat olib borishi, ya'ni yuzaga kelgan har qanday vaziyatga tezkor munosabat bildirishi, jang sharoitlarini tahlil qilgan holda, murakkab sharoitlarda to'g'ri qaror qabul qilishi, shu jumladan xatti-harakatlarni muxtor boshqara olish qobiliyatini oshiradi. O'quv yili avvalida bugungi kun talablaridan kelib chiqib, yangidan ishlab chiqilgan jangovar tayyorgarlik tadbirlari va taktik me'yorlar, batareya va divizionlarning turli sharoitlarda maxsus-taktik harakatlarni olib borishining yangi usul va uslublari amaliyotga joriy qilingandi. Ko'ryapmizki, o'z vaqtida amalga oshirilgan o'zgarishlar bo'linmalarning zarur yo'nalishlarda qo'yilgan vazifalarni tezkor va o'z vaqtida bajarishiga asosiy omil bo'lmoqda.

Artilleriya bo'linmalarida yuqori jangovar axloqiy idrok muhitini yaratish, jangovar shaylikni oshirish, mutaxassislarning amaliy ko'nikmalarini jang sharoitlariga mos ravishda yanada yuksaltirish maqsadlarida umumiy o'nta mutaxassislik bo'yicha 250 nafardan ortiq harbiy xizmatchi qatnashayotgan musobaqa g'oliblari haqida gazetamizning kelgusi sonlarida batafsil ma'lumot beramiz.

Furqat ERGASHEV,
«Vatanparvar»

YOSHLARGA OID

DAVLAT SIYOSATINING MA'NAVİY JIHATLARI



Jahondagi globallashuv jarayonlari barcha jabhalarda transformatsiyalashuvning tezlashishiga zamin yaratmoqda. Bu o'zgarishlar jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi ijobiy tomonlari bilan birga, yoshlar ongida "faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarni qondirishga intilish", "o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyaga ergashish", asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti, deb qarash kabi salbiy omillarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham dunyoning aksariyat davlatlarida har bir mamlakat va millatning kelajagini belgilab beruvchi yoshlar masalasi, unga oid davlat siyosatini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda yoshlar ongida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularda daxldorlik hissini oshirish, zamonaviy yoshlarning hayotiy pozitsiyalarini o'rganish, intellektual salohiyatini yuksaltirish kabi masalalar yuzasidan izlanishlar amalga oshirilayotganligi yoshlar ma'naviyatining transformatsiyalashuvi jarayonining manbalari va sabablarini chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jihatdan tahlil qilish mezonlarini aniqlashga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligini ko'rsatmoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatida chuqur transformatsiyalashuvni kuzatish mumkin. Jamiyatda global transformatsiyalashuv jarayonlarining kechishi natijasida unga nisbatan qat'iy tartibda yoshlardagi ijtimoiylashuv ham keskin o'zgarib bormoqda.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda", deya ta'kidlaydi. Zero bugungi tezkor rivojlanayotgan globallashuv sharoiti yoshlar siyosati masalasiga alohida e'tibor qaratish vazifasini kun tartibiga qo'yimoqda. Hozirgi globallashuv davri va zamon talabi intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash borasida teran fikrlashni taqozo etmoqda. Shu sababdan yoshlarning ijtimoiy faolligini muvofiqlashtirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy-g'oyaviy immunitetini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

Bugungi tezkor globallashuv sharoitida dunyoning rivojlangan davlatlarida yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini shakllantirish hamda ularni amalga oshirishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni ishlab chiqish borasidagi ilmiy tadqiqot va izlanishlar o'zining dolzarbligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar siyosati borasida amalga oshiriladigan har qanday dasturning yakuniy natijasi yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Yoshlar siyosati bo'yicha milliy modellarning nafaqat mahalliy nuqtayi nazardan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, balki ularning mazkur sohadagi xalqaro munosabatlarga integratsiyalashuviga ham yoshlar bilan ishlash samaradorligini belgilovchi muhim mezonlar sifatida e'tibor qaratilmoqda. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdami. Zero butun xalqimiz qatori yoshlar Yangi O'zbekistonning buniyodkorlaridir!" degan so'zlari zaminida naqadar katta ishonch mujassam ekanligini teran anglash mumkin.

Yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishiga ular bilan bog'liq muammolar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, hududlardagi yoshlarga doir dolzarb masalalar, yoshlar o'rtasida uchrayotgan iqtisodiy muammolar, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqadigan muammolar, islom dini va diniy aqidalarga nisbatan yoshlarning munosabati, yosh oilalarda uchraydigan muammolar, jinoyatchilik va huquqbuzarlik kabi illatlar shular jumlasidandir.

"Yoshlar siyosati" tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biriga aylangan vaqtdan boshlab mazkur tushuncha ijtimoiy gumanitar fanlarda institutsionallashtirish boshladi. O'tgan asrning 90-yillar boshlaridan boshlab mazkur tushunchaning bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan keng, tor va muassasaviy ma'nodagi talqinlari muhokama qilib kelinmoqda.

Yoshlar ma'naviyati haqida so'z ketar ekan, avvalo, ma'naviyat tushunchasi, uning transformatsiyalashuv jarayonidagi o'rni anglab olmoqimiz darkor. Ma'naviyat tushunchasiga hozirga qadar yagona va unikal ta'rif berilmagan. Uning ma'no-mazmuni va chegarasi shu darajada kengki, uni bitta so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da, biz mazkur tadqiqotimiz davomida unga doir umumiy yondashuvlarni tahlil qilib chiqamiz.

Ma'naviyat bu insonning ruhiy va aqliy faoliyatini ifoda etuvchi tushunchadir. Ma'naviyat jamiyatning deyarli barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Uning tag zaminida "ma'no" so'zi yotadi. Ma'naviyat insonning tashqi va ichki olamini aks ettiradi. Shu sababli bu tushuncha ma'rifat va madaniyat bilan bevosita bog'liq. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik ma'naviyatni belgilovchi asosiy omillaridandir. Ma'naviyati yuksak bo'lgan yoshlarni kamol topgan jamiyatlarda shu jamiyatning yuzi, g'ururi va obro'-e'tibori yuqori hisoblanadi. Ma'naviyatli yoshlar sog'lom fikrli, yaxshi xulq-atvor egalari sifatida ertangi kunning ishonchli kuchi bo'ladi. Davlatning kuch-qudrati bu yoshlar bo'lsa, ularning asosiy qadriyati ma'naviyat asosiga qurilmog'i lozimdir. Agar bunday tizim bo'lmas ekan, hech qachon u joyda baxt-saodat va farovonlik bo'lmaydi. Shu sababli ham, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni ma'rifatli qilish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan.

Aholining turli yosh guruhlarida sodir bo'layotgan ma'naviy transformatsiyalashuv jarayonini o'rganar ekanmiz, ba'zi tafsilotlarni ko'rib o'tishimiz lozim. Xususan, zamonaviylashuv sharoitida yosh avlodning kasb tanlashi mehnat motivatsiyasining o'zgarishi bilan birga kechmoqda. Yoshlar o'rtasida mehnat asta-sekin ma'naviy-axloqiy qadriyat xususiyatini yo'qotmoqda.

U mehnat va biznes karyerasining dastlabki bosqichida qiymat sifatida tanlanishi mumkin. Kelajakda pul qadriyat sifatida birinchi o'ringa chiqadi va aynan ular zamonaviy yosh shaxsning keyingi yashash yo'lini belgilaydi. Ayrim individual imtiyozlarning o'zgarishi fonida jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarni ustuvor yo'nalish sifatida tasdiqlash jarayoni sodir bo'lmoqda. Shu bilan birga, ular o'z-o'zidan muloqot, biznes hamkorligi, shu jumladan yoshlar o'rtasida tartibga soluvchi bo'la olmaydi. Zamonaviy jamiyatda foyda olish uchun emas, balki o'z ishi bilan davlat va jamiyatga foyda keltirish uchun yashaydigan optimistik ruhda yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirish tashviqoti yetarli emas. Afsuski, zamonaviy bozor iqtisodiyotida bunday tasavvurlar yo'q bo'lib ketmoqda.

Shu munosabat bilan yangi imijni – har qanday sharoitda bozor iqtisodiyoti talablari bilan birga, ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtira olgan yosh avlodni shakllantirmoq lozim. Yoshlar ma'naviyatida salbiy jarayonlarning ro'y berishi – zamonaviy yosh o'zini anglay oladigan jamoat tashkilotlarining yo'qligi bilan ham bog'liqdir. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, har qanday xalq va millat hayotida yoshlarning tarbiyasiga juda ham nozik va jiddiy masala sifatida alohida e'tibor qaratib kelinganligini kuzatish mumkin.

Yaponiyada yoshlar tarbiyasi borasida ishlab chiqilgan o'ziga xos tarbiya usullari mavjud. Kunchiqar yurtida yoshlar tarbiyasi borasida ishlab chiqilgan o'ziga xos tarbiya uslubini amalga oshirishda "Yagona hudud – yagona millat" konsepsiyasi ta'lim va boshqa tizimlarda keng joriy etilgan. Ayniqsa,

yapon yoshlarida vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda tarixiy qahramonlar, afsonalarning millatga keng ko'lamda tanitilishi, ularning ichki ruhiyatini Vatan ravnaqi uchun safarbar qilish mexanizmi joriy etilgan.

Yaponiyada millat, Vatan, taqdir tushunchalari uyg'unlashtirilgan. Maktablarida yapon xulq-atvori darsligi alohida fan sifatida o'rganiladi. Mazkur darslik o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida qayd etish joizki, Yaponiyada boshlang'ich maktab o'qituvchilari va bog'cha tarbiyachilari ma'naviy tarbiya bo'yicha maxsus kursda o'qishi va sertifikat olishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarga yapon millati ruhini singdirish ularning eng asosiy vazifasi etib belgilangan. Yapon yoshlari maktabdagi ertalabki darslarni madhiya aytishdan boshlaydi.

AQShdagi erkinlik bola tarbiyasida ham o'z aksini topgan. U yerda yoshlar "Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisin", degan so'zlarni har kuni eshitgan holda o'sadi. Bundan ko'zlangan maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urishmay: "Yana bir marotaba harakat qilib ko'r! Sen albatta buni uddalaysan! Chunki sen zo'rsan!" deya qo'llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o'zining mevasini beradi. Shu bilan birga, AQShda Prezident va davlat bayrog'iga sadoqat vatanparvarlik ramzi hisoblanadi. U yerda bayroqqa qasamyod ta'lim muassasalaridan boshlab yoshlarga va keng jamoatchilikka turli kino, seriallar, multfilmlar orqali doimiy singdirib boriladi.

Bunday misollarni boshqa davlatlar tajribasida ko'plab uchratishimiz mumkin. Ularning ijobiy jihatlarni o'zimizga olgan holda, amaliyotga tatbiq etish samara beradi. Mamlakatimizdagi jadal rivojlanib borayotgan siyosiy jarayonlarda yoshlar faolligini oshirish tobora bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborni, ya'ni O'zbekiston tajribasini boshqa davlatlarga ham alohida namuna sifatida ko'rsatib o'tish e'tirofga molikdir.

Shuningdek, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar borasidagi fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, quyidagilar asosiy muammolar sifatida ko'zga tashlanadi:

- yoshlar bandligini ta'minlash;
- ta'lim sifatining talab darajasida emasligi.

Jinoyatchilikning ortib borishi;

- migratsiya;
- oilaviy ajrimlar;
- virtual olam va gadjetlarga qaramlik.

Yuqorida keltirilgan muammoli masalalarni hal etish mamlakatimiz yoshlarining ma'naviy dunyoqarishi o'zgarishiga, uning ijobiy transformatsiyalashuviga erishishda muhim qadamlardan hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda davlat rahbarining mazkur ezu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloqchoy yozmoqda.

Davlatimiz Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining dastlabki davridan boshlab asosiy e'tibor qaratgan eng muhim faoliyat yo'nalishlaridan biri yoshlar masalasi hisoblanadi. Uning yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qarashlari o'tgan davr davomida bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topdi. Albatta, strategik vazifa sifatida yoshlarga qaratilayotgan e'tibor mutaxassislar, olimlar va keng jamoatchilik tomonidan alohida e'tirof bilan kutib olindi.

O'tgan davr mobaynida bu borada amalga oshirilgan ishlar o'tgan yillar davomida to'planib qolgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun zamin yaratishga qaratildi. Yoshlar masalasida o'tgan yillardan keskin farq qilgan bu davr borasida adolatli xulosaga kelish uchun albatta yoshlar hayotiga, ularning taqdiriga diqqat bilan nazar solish zarur.

Xudaynazar KUCHKAROV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
kichik ilmiy xodimi,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)



ILM VA IJOD GARMONIYASI

“Nega bizdan Beruniylar chiqmayapti?” deya yozg’irish urf bo’lgan bir paytda Abu Rayhon Beruniy ijodi va shaxsiyati bugungi zamonimiz uchun ma’naviy ideal ekani, shubhasiz. Beruniy asarlarini o’qimaganimizdan keyin qanday qilib bizdan yangi Beruniylar chiqsin? Ajdodlarimizning faqat nomi kerakmi bizga? Eng afzali, savol berishni bas qilib, javob izlashga urinib ko’raylik.

Beruniy siymosi, uning ilmiy-ijodiy olami shu qadar ulkanki, tarix, astronomiya, matematika, kimyo, geografiya, fizika, biologiya, mineralogiya, adabiyot va deyarli barcha fanlar uchun muhim obyekt vazifasini o’taydi. Beruniyni bejiz alloma demaymiz. Ul zot qomusiy ilmlar sohibi, universal olimdir.

Beruniy ilm bilan birga badiiy asarlar ham yaratgan. Alloma bir she’rida o’zining tarjimai holi haqida “Otam Abulahab – qari, ilmsiz kishi edi, onam esa o’tin tashuvchi “hamma latal hatob” bo’lgan”, deb yozadi. Bu juda nozik ta’rif bo’lib, ushbu jumla Qur’oni karimdagi “Masad” surasida uchraydi. Bu suraga o’zining oxirgi “Masad” so’zi nom bo’lib qolgani manbalarda aytiladi. Suraning ikkinchi ismi “Lahab”dir. Ko’pchilik birinchi ibora “tabbat yadaa” bilan ham ataydi. “Masad” so’zining lug’aviy ma’nosi “arqon” demakdir. Surada Abu Lahabning xotini bo’ynida arqon bilan do’zaxga kirishi ta’kidlangan. Ushbu suraning qahramoni Abu Lahabning asl ismi Abdul Uzzo ibn Abdul Muttalib bo’lib, ikki yonog’i olovdek qizarib turgani uchun Abu Lahab degan laqab olgan. Beruniy o’sha suradagi to’rtinchi oyatga ishora qiladi. Abu Lahabning xotini, Ummi Jamilning, “hamma latal hatob” – o’tin ko’taruvchi deb sifatlanishiga ulamolar bir necha xil fikrlar aytadilar. Xususan, bir

shug’ullangan. Abu Ali ibn Sino ham ilmiy ishlar bilan birgalikda she’r, dostonlar yozgan.

Ilm va ijod uyg’unligi Abu Rayhon Beruniyning asarlarida ham yaqqol sezilib turadi. Xususan, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida tarixiy faktlar turli og’zaki afsonalar bilan birga beriladi. Bu asardagi qimmatli ma’lumotlarni o’quvchiga osonroq tushuntirish va yodida saqlashi uchun muhim o’rin tutgan.

Uning asarlarida adabiyot nazariyasi, proza va poeziyaning kelib chiqishiga oid qimmatli mulohazalar uchraydi. Xususan, “Geodeziya” kitobining kirish qismida insonning so’zlash qobiliyati, dunyoviy va diniy masalalar bo’yicha bahs qilish odati nutq uchun zarur o’lchov bo’lganini qayd etadi. Olim mantiq ilmi shundan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Grammatika nasriy nutqni tartibga solib turadi. She’r qoidalari esa poeziyani muvozanatda tutadi. Prozada ham, poeziyada ham nutqning chin mohiyati uning mazmuni ekanini aytadi. Bu mulohazalar hamon dolzarbligini yo’qotmagan. Akademik Aziz Qayumov fikricha, mazmun va uning badiiy ifodasi ijodning tub mohiyatini tashkil etadi. Mazmunsiz quruq go’zallik hamisha chin ijodga xilof ekani shubhasizdir. Beruniyning xulosalari ijodda formalizmga qarshi kurashda ta’sirli qurol bo’la oladi.

Beruniy ilmiy asarlarida bot-bot she’riyatga murojaat qilib turadi. Xususan, “Hindiston” kitobida biror tezis yoki mulohazani o’rtaga tashlarkan, o’z qarashlariga dalil sifatida qadimgi yunon shoirlari va faylasuflarining asarlaridan misol keltiradi. Beruniy ilmiy asarlarining murakkablik tomoni ham shunda. Berilayotgan ilmiy yangilik yoki fikrning mohiyatini anglab yetish uchun qadimgi yunon va ba’zi o’rinlarda hind mutafakkirlarining asarlarini, xalq og’zaki ijodiga doir mif hamda afsonalarni bilish talab etiladi. Beruniy ushbu asarlarga havolalar beradi. Ilmda o’zidan avvalgi mavjud bilimlardan boxabar bo’lmasdan turib, biror yangilik yaratish mushkul. Beruniyning olimlik konsepsiyasi o’rganilgan chuqur bilimlardan foydalanib, ularni eslagan holda yangi xulosani ilgari surish hisoblanadi. Bevosita olimning o’zidan avvalgi salafarining ilmiy qarashlariga munosabatini ham ko’rishimiz mumkin.

“Hindiston” asarining “Hindlarning aqli va hissiy mavjud narsalar haqidagi tushunchalari”, deb atalgan uchinchi bobda Beruniy qadimgi yunon shoiri Homer, faylasuflar Pifagor, Divjonos, Aflotunlarning bir qancha mulohazalarini keltirib o’tgan. Olamdagi barcha mavjudot besh unsurdan iborat ekani haqida aytilgan tezisda Beruniy Homerni tilga olgan. Osmon, shamol, olov, suv va tuproqdan iborat besh unsurni hindlar “mahobi-huta” degan istiloh bilan ataganlar. Asarda izohlanishicha, bu unsurlarning barchasi murakkab bo’lib, ularning o’zlaridan oldin kelgan sodda bo’laklari bor. Ular sezish orqali bilinadigan besh narsa bilan tavsiflanadi. Xususan, osmon (*chaqmoq, yomg’ir tovushi*) eshitilib bilinadi, shamol tegib bilinadi, suv ichib ko’rib, tuproq ushlab ko’rib bilinadi. Tuproqda bu beshta tavsifning barchasi

mujassam bo’lsa, suvda hid xususiyati yo’q, olovda hid va tatib ko’rish jihati mavjud emas. Hindlar osmonga nisbatan tovush nisbatini bergan. Buning sababini Beruniy “nisbat berishdan maqsadlari nima ekanini bilmayman. Bu gumonimcha, yunon shoiri Homerning “Turli kuylar egasi bo’lgan yetti zot bir-birlariga chiroyli tovush bilan gapirib, javob beradi”, deganiga o’xshaydi”, deb izohlaydi. Beruniy yunon faylasufi Parfirusning “Fozil faylasuflarning falak tabiati haqidagi qarashlari” nomli kitobidan ham misollar keltiradi.

Hind va yunon adabiyotidan tashqari Beruniy arab adabiyotidan ham ijodiy foydalangan. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida Beruniy ba’zi ilmiy qarashlarini, nazariy xulosalarini she’riy usulda bayon etgan. Akademik Aziz Qayumov Beruniyning arab tilida yozgan she’rlarini uch turkumga bo’lib o’rgangan. Birinchi turkumdagi she’rlar koinot hodisalarini izohlasa, ikkinchi turkum she’rlar tabiat manzaralarini, holatlarini sharhlaydi. Yana bir turkum she’rlar esa jamiyat hayotidagi turli-tuman voqealarni, kishilarning holati, kechinmalarini tasvirlaydi.

Bu she’rlardan mashhuri arab kalendaridagi oylar nomi bilan bog’liq she’rdir:

*Mu’tamir-u nojiradan
boshladik,
So’ngra havvon hamda
suvon ergashur.
Keyinidin zabbo kelur,
so’ng boida,
Kelgach asamm
dushmanlik kor bo’lur.
So’ngra vog’il, notila-yu odila,
Jam’i go’zal shon-u
shuhrat nuridir.
Kelsa ranna ham burak
so’ng vassalom,
Panja birla oy sanash
bo’ldi tamom.*

Bunda arab taqvimidagi oylarning nomi ketma-ketlikda berilgan bo’lib, Beruniy oy nomlarining osonroq yodda qolishi uchun she’riy usuldan foydalangan. Beruniy she’riy usul odamlarning xotirasida yaxshi qolishi ilmiy qarashni ommaga yetkazish eng yaxshi usul, deb hisoblagan.

Olim tabiat hodisalari va jamiyat hayoti o’rtasidagi o’xshashliklarni ham she’riy tilda ifodalagan. Shuningdek, inson fe’lidagi qusurlar – soxtalik, yolg’onchilik, shuhratparastlik va boshqalar ham she’riy usulda bayon etilgan.

Beruniy har bir olim kishi havas qiladigan va ideal deb bilishga arzigulik siymodir. Zero bugun ilm parchalanib, mikrosohalarga bo’linib borayotgan bir paytda chin olim barcha ilmlardan boxabar bo’lishi kerakligini Beruniy hayotiy faoliyati misolida ko’rishimiz mumkin. Shu ma’noda, Abu Rayhon Beruniy takrorlanmas universal olimdir. Beruniy ilm hammaga manfaatli bo’lishi uchun uni ommabop qilishga, soddaroq tushuntirishga harakat qilgan. Bu fazilatni ilm yo’liga kirgan har bir kishi o’ziga yuqurtmog’i lozim.

Xurshid SEROBOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti kichik ilmiy xodimi

guruh ahli ilm ushbu jumlanı “eri kuyayotgan jahannamga o’tin ko’tarib kiradi va ikkovi yana ham qattiqroq kuyadilar”, deya talqin qilishsa, yana bir guruh ulamolar “Ummi Jamil chaqimchiligi, dinga qarshi fitnasi bilan mashhur edi. “O’tin ko’taruvchi” degani fitnani alanga oldirish uchun chaqimchilik qilib gap tashib yurishiga ishora”, deya sharhlaydilar.

Beruniy ham diniy bilimlarni, o’sha davr uchun muhim hisoblangan yunon ilmini chuqur o’zlashtirgan. XIII asrda yashagan tarixshunos Yoqut u haqda “Aql va ma’rifatda hali unga o’xshash biror kishini davron yarata olgani yo’q”, deb yozganida hargiz mubolag’a qilmagan edi. Uning ilmiy-ijodiy merosi 150 dan ortiq asarni tashkil qilishi, bizgacha 27 ta asari yetib kelgani aytiladi.

Akademik Aziz Qayumov o’zining “Beruniy va adabiyot” nomli kitobida Beruniyning asarlaridagi adabiyot, falsafa va mantiqqa oid fikr-mulohazalari, ilmiy qarashlari o’rganilgan bo’lib, Beruniyning badiiy ijodga aloqasi asosiy tadqiq obyekti sifatida olingan. Ushbu kitobda yozilishicha, asarlarida Beruniyning adabiyotga, adabiy ijodga aloqasi ma’lum darajada izhor etilgan. U adabiy ijodga oid muhim ma’lumotlarni xabar qilgan, she’riy parchalardan keltirilgan misollar orqali o’z fikrlarini isbotlashga intilgan, xalq og’zaki ijodidagi turli-tuman afsonalardan ustalik bilan ilmiy asarlarida istifoda qilgan. Beruniy o’zining asarlarini badiiy parchalar bilan bezab, ularning jonli va qiziqarli bo’lishiga katta ahamiyat bergan. U olim har doim o’quvchining diqqatini jalb qilishi uning zerikib qolmasligiga e’tibor berishi shart ekanini uqtiradi.

Gap ilm va ijod uyg’unligi haqida ketarkan, Umar Xayyom va Mirzo Abdulqodir Bedilni eslab o’tmoq joiz. Zero har ikki ijodkor aslida ilm odami bo’la turib, badiiy ijod bilan ham

Yangicha jangovar tayyorgarlik obyekti

Harbiy xizmatchilarning jipsligini ta'minlash, jamoaviy uyg'unlikni yanada oshirish, kuch, chidamlilik xislatlarini yuksaltirish hamda qo'l jangini armiyada keng ommalashtirish maqsadida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi tashabbusi bilan Nukus garnizonidagi harbiy shaharchada "Qo'l jangi to'siqli yo'lagi" barpo etildi.



Yangi jangovar tayyorgarlik obyekti ochildish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, Nukus harbiy prokuraturasi rahbariyati, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Uzunligi 250 metrdan iborat bo'lgan yo'lakda 15 ta oshib o'tish, chirmashib chiqish, sudralib yurish, qo'l jangi usullarini bajarish maketlari

hamda pichoq va muhandislik belkuraklarini ulotirish nishonlari kabi to'siqlar o'rin olgan. To'siqli yo'lak ikkiga ajralgan bo'lib, unda nafaqat mashq qilish, balki jamoalar o'rtasida musobaqa va bellashuvlarni o'tkazish imkoni ham mavjud. Harbiy xizmatchilarning jismoniy sifatlarini oshirish, sovuq qurollar yordamida qo'l jangi amallarini bajarishga o'rgatish, o'zini himoya

qilish hamda o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida yaratilgan ushbu to'siqlar yo'lagi jangovar bo'linmalar uchun haqiqiy sinov maydoniga aylanishi, shubhasiz. Zero jamoaviy jipslikni yuksaltirish, harbiy xizmatchilarni og'ir yuklamalar va kuchli emotsional stress holatida yakdil harakat qilishga o'rgatishi bilan ahamiyatli bo'lgan ushbu obyekt jangchida jangovar ruhni yuksaltirib, irodasini toblashga xizmat qiladi.

✓ KALIBR

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, Mudofaa vazirligi hamda Ovchi va baliqchilar sport birlashmasi tomonidan shu yilda imzolangan hamkorlik memorandumiga asosan, "Kalibr" uzoq masofalarga o'q otish klubi Xorazm viloyatida ham tashkil etilgan bo'lib, ushbu klubga 200 nafardan ziyod havaskor va professional ovchi a'zo bo'lgan.

Mohir merganlar bellashuvi

Klub faoliyati uchun Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli "Yangiariq" umumqo'shin poligoni hamda Mudofaa vazirligi bo'linmalarini cho'l sharoitida tayyorlash markazi negizida mashg'ulot joylari muhayyo etilgan.

O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining buyrug'iga muvofiq, "Kalibr" klubi a'zolari bilan "Eng mohir ovchi" musobaqasining o'tkazilishi belgilangan bo'lib, bellashuvning birinchi bosqichi bo'lib o'tdi.

"Yangiariq" umumqo'shin poligonida o'tkazilgan musobaqaning birinchi bosqichida ishtirok etish uchun 100 nafarga

yaqin xorazmlik malakali va havaskor ovchi nomzodini kiritib, kesimli (*nareznoy*) quroldan uzoq hamda o'rta masofaga har xil istehkomlardan otish, silliq stvoldan stend otish hamda kichik kalibrli sport miltig'i TOZ-8 dan aniqlikka otish shartlarida bellashdi.

Xorazmlik sara ovchilarni jamlagan "Kalibr" klubining navbatdagi musobaqasi ochildish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati

kengashi hamda Ovchi va baliqchilar sport birlashmasi Xorazm viloyati bo'limi rahbariyati, harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Kuchli raqobat muhitini yaratib bergan bellashuv qizg'in bahslarga boy o'tib, ovchilarning merganlik bobidagi mahoratlarini sayqallashga, tajriba almashish va malaka oshirish imkonini yaratgani bilan qizg'in kechdi.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindor klub a'zolari tashkilotchilar tomonidan diplom, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Yuqori natijalarni qo'lga kiritgan xorazmlik ovchilarga "Eng mohir ovchi" musobaqasining final bellashuviga yo'llanmalar berildi.



“QUTADG‘U BILIG”DA

HARBIY-AXLOQIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHGA DOIR PANDLAR

Qoraxoniylar saltanati XI asrda taraqqiyotning eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Somoniylar o‘rniga kelgan, Yuqori Chindan to Kaspiy dengizigacha yastangan bepoyon yerlarni qamrab olgan Qoraxoniylar zamonida ilm-fan, ma‘rifat, madaniyat rivojlandi, talay ilmiy, falsafiy, axloqiy-didaktik asarlar dunyo yuzini ko‘rdi.

MASHRIQ HUKMDORI TAVG‘ACHXONGA TAQDIM QILINGAN ASAR

Qoraxoniylar markazlashgan davlatni qurish, uni boshqarish, mavjud nizo va kelishmovchiliklarni tugatish, saltanatni tashqaridan bo‘ladigan tajovuz-u bosqinlardan saqlashga qodir qurolli kuchlarni barpo etish kabi masalalarga alohida diqqat qaratgan. Natijada Yusuf Xos Hojibning chinliklar “Odob ul-muluk”, mochinliklar “Oyin ul-mamlakat”, mashriqliklar “Ziynat ul-umaro”, eronliklar “Shohnomayi turkiy”, ba‘zilar “Pandnomayi muluk”, turonliklar “Qutadg‘u bilig” deb atagan asar yaratildi.

Davlatni idora qilish, siyosat, qonun-qoidalar, shuningdek xalqning rasm-u odatlari, axloq prinsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan bu asar 1069–1070-yillarda Koshg‘arda yozib tugatilgan. Mashriq hukmdori Tavg‘ach ulug‘ Bug‘ra Qoraxon uning muallifi Yusufni yorlaqab, ulug‘lab, unga Xos Hojib lavozimini bergan.

6 722 baytdan tashkil topgan pandnomaning 30-bobi bevosita harb ishi, harbiy san‘at, chunonchi, qo‘shin (*su*)ni boshqarish, cherikka rahbarlik qiluvchi sarkarda (*su bashi*, *isfahsolor*)ning axloqiy xususiyatlari, uning o‘z qo‘mondonligidagi askarlarga munosabati me‘yorlari to‘g‘risida batafsil so‘z yuritilgan.

LASHKARBOSHI QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Yusuf Xos Hojibning fikricha, yurtga rahbarlik qiluvchi hukmdorga do‘st bo‘lmaydigan yovning uyqusini qochiradigan, pishiq, chidamli, ko‘p jang-u jadallarni boshidan kechirgan, o‘ta qo‘rqmas, botir yurakli lashkARBOSHI zarur. Qo‘shinga qo‘mondonlik qilish, uni barpo etish va tartibga solish, g‘anim kuchlarini sindirish juda sharaflari va mas‘uliyatli ish bo‘lib, bunday vazifalarni bajarishga yetuk, ya‘ni harb



ishidan yuqori malakaga ega, ziyrak, hushyor harbiylarning tayinlanishi maqsadga muvofiq sanalib, janglarda erishilajak g‘alabalarni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Zero bunday sarkardaga g‘ofillikdan zarracha tashvish yetmaydi. LashkARBOSHI ochiqqo‘l, muloyim, bahodir, xulq-atvori barqaror bo‘lsa, uning atrofida sara jangchilar, mard o‘g‘lonlar, el-ulus ozodligi yo‘lida shirin jonini ham fido qilishga tayyor qahramonlar yig‘iladi.

ASKARNING MUHIM FAZILATI

Pandnoma yozg‘uvchisining ta‘kidlashicha, askarlar dovyurak, jasur hamda aqlli bo‘lishi kerak. Zotan, yuraksiz, qo‘rqoq kishi cherikni buzadi, buzuq lashkar jasur, mard askarlarni yo‘ldan ozdiradi, boshboshdoqlikni yuzaga keltiradi.

OR-NOMUS

LashkARBOSHI or-nomusni saqlash uchun dushman bilan qarshilanishi, talashishi, undan oladigan o‘chidan qaytmasligi zarur. Chunki or-nomusli kishi esa birinchi bo‘lib dushmandan qochadi, sharmandalarcha janggohni tark etib, jonini Jabborga berib, dushman bilan savashayotgan safdoshlarini qiyin ahvolga solib qo‘yadi. Shunday ekan, yurakli shaxs (*harbiy*) or-nomusni baland tutadi, bunday jangchi halok bo‘lsa ham, urushib, talashib halok bo‘ladi.

ASKARLAR KO‘NGLINI ISITISH

Sarkardaning xulqi manzur, yumshoq, ko‘ngli ochiq bo‘lsa, u o‘zini

cherikka sevimli qiladi. Xushmuomala, shirinso‘z lashkARBOSHI askarlar ko‘nglini isitadi, aksincha, tili o‘tkir, qo‘pol, johil rahbarlar qo‘l ostidagilarni o‘zidan qochiradi, ularning unga bo‘lgan ishonch va mehrini sindiradi.

MANMANLIK G‘AFLATNI CHAQIRADI

Yusuf Xos Hojib sarkarda kalondimog‘lik va takabburlikka aslo yo‘l qo‘ymasligi, ko‘ngilni keng tutib, g‘urur-u manmanlikka berilmasligi, manmanlikni o‘ziga shior qilgan lashkARBOSHI g‘aflatda qolishi, yovdan qaqshatqich zarba yeyishi, g‘ofillik tufayli rejalari barbod etilishi, o‘zi va askarlarining bevaqt o‘limga duchor bo‘lishi ehtimoldan xoli emasligini alohida urg‘ulaydi.

OZUQADEK ZARUR SIYOSAT

Pandnoma muallifining ta‘kidiga ko‘ra, nomi tillarda doston bo‘lgan, dong‘i ketgan lashkARBOSHI botir, mard bo‘lishi qatori, salobati, xushro‘yligi, istarasi issiqligi bilan ham ajralib turishi, cherik uchun ozuqadek zarur siyosat yuritishi, zero to‘g‘ri yuritilgan siyosat, ya‘ni boshqaruv qo‘shinning itoatkor bo‘lishini ta‘minlashi, chunki o‘z holiga tashlab qo‘yilgan u yoki bu lashkar beboshlik va boshboshdoqlik ko‘chasiga kirishi, mavjud qonun-qoidalar-u nizomlarga bo‘ysunmasligi, unda buzuqlik belgilari namoyon bo‘lishi mumkin.

QO‘SHIN SONI EMAS, SINALGAN JANGCHI...

Yovga qarshi otlangan cherik va uning qo‘mondoni uyqudan voz kechib, tun-kun hushyor turishi, g‘animning qo‘qqisidan qilinadigan hamlasini daf etishga tayyor bo‘lishi talab etilgan. Asar muallifining e‘tiroficha, cherikka sara, tajribali, sonsiz savashlarda suyagi qotgan, zarur qurol-yarog‘, ot-ulov bilan to‘liq ta‘minlangan kishilarni safarbar qilish maqsadga molik. Qo‘shin sonining ulkan miqdorda bo‘lishi ma‘qullangan emas. Zotan, qo‘shin ko‘p sonli bo‘lsa, uni boshqarish mushkullashadi, beboshlik yuzaga chiqadi, bebosh lashkar jang vaqtida yuraksizlik, qo‘rqoqlikka yo‘l qo‘yadi. Sinalgan jangchi qo‘shin soniga hayron qolmaydi, o‘n ikki ming kishilik cherikni ko‘p lashkar hisoblamaydi, yov saflarini ko‘p bor tor-mor etgan

botir uchun to‘rt ming kishilik cherik yetarli sanaladi.

Savashga yo‘l olgan sarkardaning quyidagi jihatlarga beistisno rioya qilishi pandnomada alohida urg‘ulangan:

- g‘animni mag‘lub etish qo‘ldan keladigan kishilarni o‘ziga yaqin tutish;
- ilg‘or va ayg‘oqchi qismlarni tanlash, saralash;

- ayg‘oqchi va ilg‘or qismlar orasidagi masofa juda yiroq bo‘lmasligi, yovni sindirish imkoni tug‘ilsa, unga zudlikda zarba berish;

- cherikni tun-u kun mardlardan iborat soqchi otliqlar yordamida asrash;

- rejalarni mutlaqo sir saqlash, ularning oshkor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik; g‘animga zarba beruvchi shaxslarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik;

- mustahkam yerda o‘rdugoh (*lashkargoh*, *yurt*) qurib, qismlarni tushirish, birorta jangchini o‘zidan uzoqlashtirmaslik, askarlarni turli noaxloqiy harakatlardan tiyish;

- cherikning yaqinida yetarli suv va o‘t bor bo‘lgan lashkargohga joylashtirish;

- lashkarni juda ehtiyot qilish, til oldirib qo‘ymaslik, cherigining ozko‘pligini yog‘iy bilmaslik tadorikini ko‘rish;

- o‘rdugohda mustahkamlangach, dushmandan til olish, tildan g‘anim qilg‘i (*taktikasi*, *rejasi*), soni, qurol-aslaha turi, vaziyat to‘g‘risida ma‘lumotga egalik qilish;

- yovni yengish uchun: a) eng oldin unga nisbatan hiyla qo‘llash; b) soqlik va hushyorlikka og‘ishmay rioya qilish;

- yov lashkari miqdor jihatdan ortiq bo‘lgan kezda uni birinchi bo‘lib jangga kirishga majbur qilish;

- jangni cho‘zmaslik, yovga sirlarni bilib olishga yo‘l qo‘ymaslik, cho‘zilgan muhoraba dushmanga qo‘l kelishini esda tutib, oyoqni ildam olg‘a tashlash;

- g‘anim cherigi yaqinlashib, askarlari hamla qilsa, ularga munosib qarshilik ko‘rsatuvchi o‘g‘lonlarni jangga kiritish;

- dushman janggohdan yuz o‘girsas, uni quvish, qo‘lga tushirish, ayni chog‘da asir oldirib qo‘ymaslik;

- jangda mardlik ko‘rsatganlarga iliq so‘z, ochiq yuz bilan mol-tovar ulashish, in‘om berish, maqtash, yaradorlarni davolash, asir tushganlarni qutqarib, o‘z safiga qaytarish;

- halok bo‘lganlarning hurmat-e‘zozini joyiga qo‘ygan holda dafn qilish, o‘g‘il-qizlari bo‘lsa, ularning haqini berish.

Bunday xatti-harakatni ko‘rgan askarlar-u sarbozlar sevinchga to‘ladi, savash chog‘ida shirin jonini fido qilishga ham tayyor turadi.

Bebaho obida “Qutadg‘u bilig”da ilgari surilgan pandlarning aksariyati keyingi davr hukmdorlari, xususan sohibqironning davlatni idora etish, qo‘shinni boshqarishga qaratilgan tuzuklari, Boburning tarixiy-badiiy-memuar xarakterdagi “Boburnoma” asarida aksini topganini alohida ta‘kidlash zarur.

Hamidulla DADABOYEV,
Mudofaa vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi a‘zosi,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi,
professor

MUSOBAQA KUBOGINING



Mamlakatimizda harbiy xizmatchi ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning o'rni va rolini oshirish, iste'dodlarini namoyon qilishlari bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugun jamiyatda harbiy ayollar oila va farzand tarbiyasi bilan bir qatorda mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash yo'lida ham ibrat bo'layotgani, shubhasiz. Ana shunday zukko ayollarni aniqlash va munosib rag'batlantirish maqsadida "To'maris izdoshlari" ko'rik-tanlovining har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinishi ham bunga yorqin misol.



Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan "To'maris izdoshlari"ning bu yilgi tanlovida 9 ta jamoa birinchi o'rin uchun bellashadi. Shartlar o'sha-o'sha, jismoniy va jangovar tayyorgarlik hamda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda o'zligini namoyish etish.

Dastlab jismoniy va jangovar tayyorgarlik bo'yicha jamoalar sinovdan o'tkazilgan bo'lsa, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish tanlovga yakun yasab berdi. Musobaqaning shaffof o'tishini ta'minlash maqsadida hakamlar hay'ati a'zolari soha mutaxassislaridan iborat bo'lgan xolislardan tanlab olindi.

Mazkur tanlovning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishida harbiy xizmatchi ayollar "O'zini tanishtirish", "Zukkolik", "Men pazanda ayolman", "Erkin mavzu" kabi shartlarda o'z bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi. Asosiysi, har bir shartda To'maris tabiatiga xos shijoatni namoyon etdi.

– Tan olib aytish kerak-ki, ko'rik tanlovga kelgan jamoalarning tayyorgarligi o'tgan yilga nisbatan juda yuqori. Ushbu musobaqaning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishiga mas'ul va hakam sifatida jamoalarning chiqishlarini baholashda hay'at a'zolari bilan ancha qiynaldik. Chunki ularning har bir shart bo'yicha chiqishlari soha mutaxassislarining ham hayratiga sabab bo'ldi, – deydi Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurova. – Harbiy qizlarimizning tayyorgarligiga imkoniyat va sharoit yaratib bergan okrug va qo'mondonlik rahbariyatiga minnatdorlik bildiramiz.

"To'maris izdoshlari" ko'rik-tanlovida o'zining g'alabaga bo'lgan ishonchi, yuqori intellektual salohiyati, ma'nan va jismonan chiniquqanligini namoyon etgan, Markaziy harbiy okrug jamoasi uchinchi o'rinni egalladi. Ikkinchi o'rin Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoasiga nasib etgan bo'lsa, faxrli birinchi o'rinni Toshkent harbiy okrugi jamoasi qo'lga kiritdi. Shu tariqa o'tgan yilgi natijani takrorlagan Toshkent harbiy okrugi jamoasi qizlari musobaqa kubogini ham o'zlarida saqlab qoldi.



MANZILI O'ZGARMADI



– Biz birinchi o'rin uchun kurashgan edik. Ammo ikkinchi o'rin nasib etdi. O'tgan yili uchinchi o'rinni qo'lga kiritganimizni hisobga oladigan bo'lsak, bu yilgi natijamizda o'sish bor. Qo'mondonligimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlardan kelib chiqib, keyingi yil birinchi o'rinni egallaymiz va musobaqa kubogini o'zimiz bilan olib ketamiz, – deydi kichik serjant Mavsuma Suyarova.

– Kuch tuzilmalari o'rtasida o'tkazilgan "To'maris izdoshlari – 2022" musobaqasida vazirligimiz terma jamoasida qatnashib, faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritgan edik. Agar bu yil ham terma jamoa safida ishtirok etish nasib etsa, albatta, o'tgan yilgi natijani takrorlashga harakat qilaman. Mudofaa vazirligi sha'nini himoya qilish men uchun sharaf.

Taqdirlash marosimida so'z olgan Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Rahmatilla Rahmonov musobaqa ishtirokchilarini tabriklar ekan, bu qizlarimiz afsonaviy To'maris kabi o'z vatanparvarligini namoyish etgan lo'bar, maftunkor, oqila harbiy xotin-qizlar ekanligini alohida ta'kidladi. "Bu qizlarimiz erkak harbiy xizmatchilardan aslo qolishmaydi. Tez orada bo'lib o'tadigan kuch tuzilmalari o'rtasidagi musobaqada yuqori natijani qayd etib, Mudofaa vazirligi sha'nini munosib himoya qilishlarida tilakdoshman", – deya o'z so'zini yakunladi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida turibmiz. Bu sana 1997-yildan buyon har yili umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelinadi. Muallimlarga bo'lgan hurmatimizni bildirish uchun faqat shu kunning o'zi kifoya qilmasada, lekin bu ularga bo'lgan yuksak e'tiborning ramziy namunasidir. Aslida esa ular hamisha xalqimiz e'zozida va ardog'idadir.



Suratlar arxivdan olingan

BOQIY qahramonlar



Ayniqsa, so'nggi yillarda jamiyatimiz va davlatimizning butun tizimida amalga oshirilgani singari ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalaridagi islohotlar barobarida mazkur jabha namoyandalari ham mislsiz e'tibor hamda g'amxo'rlik ko'rsatilib, bu jarayon tobora yuksaklik kasb etib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining inson kamoloti va Vatan taraqqiyotining asosi bo'lgan ta'lim-tarbiya hamda ilm-fanni harakatlantiruvchi ustozlarga, ularning qadri va sha'niga yuksak ehtirom ko'rsatib, — **“...muallimning obro'-e'tibori bu, avvalo, millatning, butun xalqning obro'-e'tibori”** ekanligini, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygohlarning professor-o'qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilarni bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansning to'rt tayanch ustuni deb e'tirof etganlari ham ustozlarga e'tibor naqadar yuqori ekanligining yaqqol tasdig'idir.

Referendum orqali umumxalq ovozi bilan qabul qilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 52-moddasida:

“O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi” deb belgilanganining o'ziyoq ustozlarning yuksak maqomi va nufuzini belgilaydi.

Darhaqiqat, kosiblik bo'ladimi yo sartaroshlik, amaliy ish yoki ilm-u urfon, oshpazlig-u tikuvchilik, IT-sohasi yoxud dehqonchilik bo'ladimi, qo'yingki, qaysi soha bo'lmasin, barchasida o'z ishining ustalarini o'sha sohaning ustozlari shakllantiradi.

Ustozlarda halollik, sadoqat, vatanparvarlik, kamtarlik, ma'naviy barkamollik, poklik kabi qator oliy insoniy fazilatlar mujassam. Qolaversa, ular butun umri, mehri va mehnatini shogirdlariga fido qiladigan, evaziga shogirdidan zarradek narsani umid ham qilmaydigan, ulardan aslo ranjimaydigan va doim shogird kamoloti uchun ming o'lib-tiriladigan fozil insondir.

Ustozlar — beqiyos psixolog va boshqaruvchi. Har bir o'quvchisi qanaqa ekanligini, qanday o'ziga xos xislatlari va kamchiliklari borligini faqat ustozgina yaxshi biladi hamda qog'ozga qaramasdan yoddan aytib bera oladi. Ustozlar o'zi o'qitgan o'quvchilarining fe'l-atvori, o'qish davrida ko'rsatgan “karomati” va alohida jihatlarini oradan 60 yil o'tib ham so'rab ko'ring, har biri haqida soatlab gapirib beradi. Bunga ko'cha-ko'yda, to'y-ma'raka yoki bayramlarda uchrashib qolgan ustoz-shogird suhbatlarida ham ko'p guvohi bo'lganmiz.

Ta'lim va tarbiya berish borasida ustozlar shogirdlarining har biriga ularning salohiyati va shaxsiga oid jihatlarini inobatga olgan holda alohida yondashadi, qaysinisigadir yumshoqlik, “dangasalik tomiri urib qolgan”lariga esa bemislr mehr hamda jonkuyarlik tuyg'usi yashiringan qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'ladi, bilim va hayotiy saboq beradi.

Shu onda katta yoshdagi ikki ayol ustozimning suhbatlari yodimga tushdi, ya'ni boshlang'ich sinfdagi bolalik davrimning qaysidir kunida ulardan biri ikkinchisiga qo'qqisidan:

— Qarang, qishloqda ham hech kimdan kam bo'lganingiz yo'q-ku, lekin shu ilmingiz va bilimingiz bilan allaqachon doktorlikni yoqlab, sohangiz bo'yicha dunyo kezgan bo'ladingiz. Axir yoshligingizda shunday orzularingiz bo'lgan edi, — deb qoldi.

Shunda suhbatdoshi:

— Ha, o'rtoqjon, shunaqa niyatlarim bo'lgan. Qarang, hozir minglab

shogirdlarimni uchirma qildim. Ulardan qanchasi davlat ishida xalq xizmatida kecha-yu kunduz yelib yuribdi, nechtasi biznesmen, bilim maskanlarida men singari ta'lim berayotganlari qancha. Ehhe, yana qancha o'quvchim ilm yo'lida izlanmoqda, yana qanchasi dunyo kezib yuribdi. Ana ular mening orzularim ro'yobi...

Jim qoldi. So'ng titroq ohangda qo'shib qo'ydi:

— Ish, oila, farzand tarbiyasi bilan bo'lib tumandan nariga chiqmabman. Lekin har bir shogirdimning yutug'ida orzularim ro'yobini ko'raman. Ayrimlari bayramlarda qo'ng'iroq qilib, hol-ahvol so'rashganida xuddi bolam bilan gaplashgandek, boshim osmonga yetadi. To'g'ri, ular ish bilan bo'lib bizni yo'qlashga har doim ham vaqt topolmaydi, yo'qlashmasayam mayli, yaxshi yurishsa bo'ldi...

Shu suhbat hech yodimdan chiqmaydi. Mana shunday xizmatini minnat qilmaydigan, tanti insondir ustoz. Shunday ekan, ustozlarga ota-onadan boshqa teng keladigan maqom bormi?! Zotan, “Ustoz — otangdek ulug'” degan purma'no hikmat ham bejiz aytilmagan.

Axir ustozlar ota-ona singari hayot bo'stonidagi yosh niholning daraxtga aylanishi uchun beminnat mehnat qiladi. Inson ma'naviy yetuk va barkamol bo'lib kamol topishida tabarruk ustozlarimizning o'rni beqiyos. Ular ma'naviyat osmonida ziyo taratib, odamlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib turgan yo'lchi yulduzdir.

Abdurahmon Jomiy aytganlaridek:

“Jahonda bo'lmasa muallim agar, Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar”.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz ustozlarni ulug'lab:

“Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila”,

deya ularning mehnatini yuksak e'tirof etgan edi.

Fikrimni yakunlash arafasida ishonch bilan ayta olamanki, hozirgi axborot

texnologiyalari asrida telefonimizda, hatto bog'chadagi birinchi ustozimiz — tarbiyachi opamizning ham telefon raqami bor, shunday emasmi?!

Ta'lim dargohlaridagi qadrlil ustozlarimiz, qolaversa, bu hayotda qaysidir ish, kasb yoki yumushda bizga yo'l-yo'riq ko'rsatib, ustozlik qilgan bag'rikeng va tabarruk insonlar bilan uchrashib, hech bo'lmasa, SMS yozib yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali yozishib, barchalarining holidan birdek xabar olib turamiz. Agarda ularni yo'qlashlarimiz kamayib ketgan bo'lsa ham, bu ishimiz ko'pligidan vaqt topolmayotganimiz uchun, aslo yodimizdan chiqib qolganlari uchun emas, to'g'rimi?!

Yaqinlashib kelayotgan ustozlar bayramida ham birinchi ustozlarimiz — ota-ona, aka-opa, uka-singillarimizdan boshlab, barcha sohalaridagi hamma ustozlarimizni yo'qlaymiz, ko'ngillarini ko'taramiz va duolarini olamiz, desam, adashmagan bo'laman (*o'tganlarini oxiratlari obod bo'lsin*).

Fursatdan foydalanib, barcha ustozlarni bayram bilan samimiy qutlayman va ularga ehtiromimiz yuksakligini, qalbimizda ota-onamiz hamda Vatanimizga bo'lgani kabi ularga muhabbatimiz cheksiz ekanini hech qachon yoddan chiqarmasliklarini so'rab, so'zimni quyidagi she'rim bilan yakunlab qolaman:

**Ulug'likda ota misoli,
Sabog'ida jumlayi jahon.
Ta'limida hayot timsoli,
Oliy maqom tabarruk inson.**

**Ziyo urfon koinotida,
Luqmonidir butun Yer yuzin.
Asli shogird kamolotida
Ro'yobini ko'rar orzusin.**

**Adliya podpolkovnigi
Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining yordamchisi**

Yoshlarning sevimli ustozlari edi



Inson dunyoga kelar ekan, hayotda uzoq yashashi bilan emas, balki umri davomida amalga oshirgan ezgu va xayrli ishlari ila hurmat-e'tibor topadi. Umrini Vatan tinchligi, taraqqiyoti va huquq-tartibotni mustahkamlashga bag'ishlagan kishilar hayot sinovlarini mardonavor yengib o'tish bilan birga, o'ziga xos tajriba maktabini ham yaratadi.

Ana shunday insonlardan biri 1957-yilda Farg'ona viloyatining Quva tumanida tug'ilgan, 35 yil huquq sohasining turli tizimlarida fidokorona xizmat qilgan, harbiy sud sohasining faxriysi Qahramon Botirovdir.

Qahramon Botirov 1976–1981-yillarda Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetini tugatgach, 1981–1985-yillarda Farg'ona viloyati adliya boshqarmasida katta maslahatchi, 1985–1990-yillarda Farg'ona viloyati advokatlar kollegiyasining advokati, 1990–1991-yillarda Farg'ona viloyati advokatlar kollegiyasining rais o'rinbosari lavozimlarida ishlagan.

Sud tizimida ilk faoliyatini Qahramon Botirov xalqimiz istiqlolni qo'lga kiritgan yilda Farg'ona viloyati Quva tumani sudining sudyaligidan boshlagan. Oradan uch yil o'tib, 1994–2006-yillarda Farg'ona garnizoni va Sharqiy harbiy okrug harbiy sudining raisi, so'ngra 10 yil Sharqiy harbiy okrug harbiy sudining sudyasi lavozimlarida faoliyat yuritib, 2016-yil may oyida shu lavozimdan pensiyaga chiqdi.

Huquqshunoslikning sir-asrorlarini puxta o'zlashtirgan Qahramon Botirovdagi tajriba va malaka uning harbiy sudya hamda sud raisi lavozimida ishlagan yillarida yanada ortdi. Qurolli Kuchlar tizimlarida jinoyatchilikning oldini olish va harbiy intizomni mustahkamlash,

sud sohasiga malakali xodimlarni jalb etishda bor bilimi, tajribasini ishga solib, samarali xizmat qildi. Sohada ko'plab shogirdlarni tarbiyalab, sudya bo'lib shakllanishiga munosib hissa qo'shdi.

Chorak asr harbiy sudya sifatida xizmat qilib, o'z ishini puxta bilishi, tirishqoqligi, kasbiga mehr bilan yondashishi, odamoxunligi bois hamkasblari orasida obro'-e'tibor qozondi, el nazariga tushdi.

Qahramon akening harbiy sud sohasidagi mashaqqatli va sharaflil mehnati davlatimiz tomonidan qadrlanib, 2002-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faxriy yorlig'i va 2009-yilda "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan mukofotlangan.

Ustoz bilim va tajribasi, ishga nisbatan talabchanligi bilan bir qatorda, harbiy sudni 10 yillar davomida boshqargan inson sifatida, rahbarlik qobiliyatini o'zida to'la mujassam etgan edi. Ta'bir joiz bo'lsa, ustozning o'rgansa arzigulik xislatlari juda ko'p bo'lgan. Bu kamtarin inson hamkasblariga, sudga kelgan fuqarolarga ham birdek muloyimlik bilan munosabatda bo'lardi.

E'tiborli tomoni, biror kishidan "Qahramon aka xatom uchun koyidi", degan gapni hozirgacha eshitganim yo'q. Shuning barobarida, o'zini tutishi va fe'l-atvori bilan boshqalarning mehrini qozonar, bu esa o'z-o'zidan sud organlariga nisbatan fuqarolarda hurmatni yuzaga keltirardi.

O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist Ubaydulla Mingboyev "Sudyalik ulkan mas'uliyat" kitobida "...sudyalik maqomiga mos kishi bo'lib shakllanish uchun yanada batafsilroq qonunlarda yozilmagan, ammo amal qilishimiz lozim bo'lgan insoniylik fazilatlariga haqida gaplashishimiz va ularga qat'iy rioya etishga o'rganishimiz lozim", deb bejizga ta'kidlamagan.

Bu o'g'itlarning asl mazmunini 2015-yilda Farg'ona shahrida harbiy sudya sifatida faoliyat boshlaganida yanada teranroq angladim. Sud xodimi sifatida ko'p yillar ishlab, keyin sudyalik lavozimiga tayinlangan bo'lsam-da, bu kasbning ustasi bo'lish, haqiqiy sudya bo'lib shakllanish uchun odam o'z ustida tinimsiz ishlashi va o'qib-o'rganishdan tashqari, ustozlar o'giti, maslahati qanchalik zarurligini his qildim.

Tarixga nazar solsak, buyuk jahongirlar va dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olimlar ham ustoz tarbiyasi va tahsilini olgan. Qanday sohada bo'lsa ham har bir inson ustozga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, sud tizimida sudya sifatida shakllanishda ustozlarning o'rni beqiyos.

Mening eng katta yutug'im, Sharqiy harbiy okrug harbiy sudida Qahramon Botirovdek o'z ishini yaxshi biladigan, ish bo'yicha

qattiqqo'l va professional, ayni paytda xushmuomala ustozga shogird tushib, sohaning qirralarini o'rganganidir.

Mustaqillikdan keyingi davrda tashkil etilgan harbiy sudlar umumyurisdiksiya sudlari tarkibida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, ularning faoliyati bevosita Qurolli Kuchlar bilan bog'liqligi bilan ahamiyatlidir. Qahramon aka o'zaro hamkasblar bilan suhbat chog'ida yoki yig'ilishlarda harbiy sudlarning huquqni qo'llash amaliyotidagi o'ziga hos jihatlari e'tiborga olish, harbiy sudlar tomonidan jinoyat ishlari doirasida qabul qilinadigan qarorlar Qurolli Kuchlarning saflarini jipslashtirish va harbiy intizomni mustahkamlashga xizmat qilishi lozimligini ko'p bora ta'kidlar edi.

Ustoz bilan birga ishlagan, qolaversa, harbiy sud sohasida xizmat qilgan barcha sudya va sud xodimlari u kishini faqat yaxshi taassurotlar, ezgu va xayrli ishlari bilan xotirlaydi.

Nafaqaga chiqqanidan so'ng ham O'zbekiston Respublikasi sud faxriysi Qahramon Botirov yosh sudyalarga kasb sirlarini o'rgatib, murabbiylik harakatiga o'z hissasini qo'shdi. Uning ishini shogirdlari davom ettirmoqda.

Ustozimizning porloq xotirasi doim qalbimizda yashaydi.

Bahriddin AHMEDOV,
Samarqand harbiy sudining raisi

EHTIROM



Xitoyda O'qituvchilar kuni 10-oktabrda, Polshada 14-oktabrda, Turkiyada 24-noyabrda, Braziliyada 15-oktabrda, Vetnamda 20-noyabrda, Hindistonda 5-sentabrda, Eronda 2-mayda, Koreyada 15-mayda nishonlanadi. Belarus, Latviya, Qozog'iston va Ukrainada esa oktabr oyining birinchi yakshanbasida bayram qilinadi. Armaniston, Ozarbayjon,

kunida tantana qilinadi. O'zbekistonda 1996-yildan buyon O'qituvchi va murabbiylar kuni 1-oktabr kuni nishonlanib kelinmoqda.

Har birimizning aziz ustozlarimiz bor. Ular haqida gapirganimizda doim yurak to'lib-toshadi. Ustoz qalblarga ezgulik ziyosini sochadigan, o'z shogirdlariga yurak qo'rini beradigan, ularni chinakam

Ustoz degan sharaflil nomni ulug'lab kelayotgan, ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsoli bo'lgan yurtimizdagi barcha ustoz va murabbiylarni, Qurolli Kuchlar akademiyasida faoliyat olib borayotgan barcha kasbdoshlarimizni samimiy muborakbod etaman. Sharaflil va

USTOZLIK SHARAFLI KASB

O'qituvchi so'zi lug'atlarda 68 dan ortiq sinonim variantga ega. Bugungi kunda dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida o'qituvchilar kuni nishonlanmoqda.

Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Rossiya, Estoniya, Litvada o'qituvchilar kuni 5-oktabrda YUNESKO tomonidan ta'sis etilgan, Butunjahon o'qituvchilar kuni bilan birga nishonlanadi. Amerikada o'qituvchilar kuni milliy bayram sifatida 1953-yildan buyon, may oyining birinchi seshanba

kamol topishiga, bilim, mehr-oqibat, ezgulikni o'rgata olgan qadri baland insondir. Ustozlarimizni tinglab odamiylikning eng yaxshi xislatlarini o'rgandik, hayotimizda asqatadigan yashash ilmini ulardan oldik. O'zimiz ham ustoz bo'ldik.

mas'uliyatli kasbda zafar, yutuqlar ila doim shogirdlaringizning e'tiborida, e'zozida bo'ling!

Xulkar AHMEDOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti

G'amxo'rlik olg'a undaydi

26-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlari xodimlari kuni munosabati bilan DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda yangi, namunaviy loyihalar asosida barpo etilgan, harbiy shaharchalar va xizmat xonadonlari bayramga munosib tuhfa tarzida sarhadlarimiz posbonlariga topshirildi.

Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida joylashgan bo'linma shaxsiy tarkibi uchun barpo etilgan, chegarani qo'riqlash vzvodining ochilishiga

bag'ishlangan tantanali tadbirida viloyat hokimi, keng jamoatchilik vakillari, yurt himoyachilari hamda ularning oila a'zolari ishtirok etib, bugungi

kunda Chegara qo'shinlarining jangovar salohiyatini yanada yuksaltirish, sarhadlarimiz posbonlari uchun munosib xizmat va turmush sharoitlarini yaratish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlashdi.

Shuningdek, foydalanishga topshirilgan xizmat xonadonlari va ulardagi shart-sharoitlarning zamon talablari darajasida ekani, uyning birinchi qavatida joylashgan 50 o'rinni bolalar bog'chasi harbiylar va ularning oila a'zolari uchun juda katta qulaylik ekanligi bilan yig'ilganlarning diqqat markazida bo'ldi.

Ana shunday cheksiz quvonch va baxtiyorlik onlarini Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida janubiy sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan chegarachi o'g'lonlar va ularning oila a'zolari ham his qildi. Viloyat hokimi, Chegara qo'shinlarining mas'ul ofitserlari, nuroniylar va yoshlar ishtirok etgan tadbir davomida baxtiyor oilalarga yangi xizmat xonadonlarining kalitlari tantanali tarzda topshirildi.

– Shu kichik kalit bizning katta baxtimiz, farovon turmushimiz

va shodligimizga yo'l ochib, farzandlarimiz bilan qulay shart-sharoitlarda yashashimizni ta'minlaydi. Ko'rsatilayotgan bunday e'tibor va g'amxo'rlik uchun oilamiz nomidan davlatimiz rahbariga o'z minnatdorligimizni bildiramiz deydi, – kichik serjant Furqat Isroilovning turmush o'rtog'i Maifuza Abduraimova.

Buxoro viloyatida joylashgan harbiy qismlarning birida ham yangi xizmat xonadonlari va bolalar bog'chasining foydalanishga topshirish marosimi katta shodiyonaga aylanib ketdi. Ramziy lentalar kesilgach, tashrif buyuruvchilar qad rostlagan muhtasham binolarni ko'zdan kechirib, islohotlar samarasiga amalda guvoh bo'ldi. Harbiy oila bekalarining quvonchi-yu, bolajonlarning sho'x-shodon kulgulari bilan to'lgan harbiy shaharchada shu kuni baxtiyor va farovon turmush shukhi o'z ifodasini topdi.

Albatta, barcha shart-sharoit va qulayliklarga ega bo'lgan bunday zamonaviy majmualar yurtimiz himoyachilari va ularning oila a'zolari uchun bayramga munosib tuhfa bo'ldi.



✓ MA'RIFAT

Shoir va yoshlar uchrashuvi

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy olamini boyitib, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga qaratilgan ko'plab tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Shu maqsadda tashkil etilgan tadbirlardan biri taniqli shoir, "Do'stlik" ordeni sohibi Shodmonqul Salom ishtirokida bo'ldi. Qizg'in suhbat va savol-javoblarga boy tarzda kechgan uchrashuv davomida o'quvchilar shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Shodmonqul Salom o'zining adabiyot maydonidagi ilk qadamlari xususida to'xtalar ekan, mazkur jarayonda ustozlarining o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidlab, "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litsey jamoasini yaqinlashib kelayotgan 1-oktabr – O'qituvchi

va murabbiylar kuni bilan samimiy qutladi. Shuningdek, inson kamoloti, uning jamiyatda o'z o'rnini topib, yutuq va muvaffaqiyatlarga erishishida ustozlarning hissasi ulkan ekanini alohida e'tirof etdi.

Shoir o'zi haqidagi ba'zi xotiralar bilan o'rtoqlashar ekan, taniqli ijodkorlar Shukur Xolmirzayev, Muhammad Yusuf, Abdulla Oripov va Usmon Azimning she'rlari-yu asarlaridan ilhomlanishi haqida ham to'xtalib o'tdi. Suhbat davomida yaqindagina premyerasi bo'lib o'tgan "Abdulla Oripov" badiiy filmi xususida ham so'z yuritilib,

tomoshabinlar tomonidan juda iliq kutib olingan mazkur kinokartina Shodmonqul Salom tomonidan O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov obrazi juda ishonarli va ta'sirchan tarzda ijro etilgani e'tirof etildi.

Shoir o'z dastxati tushirilgan kitoblarni suhbat jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar hamda litsey kutubxonasining fondi uchun sovg'a qildi. Barchani go'zal she'riyat va nafis adabiyot olamiga oshno etgan mazkur ma'naviy tadbir yig'ilganlarda katta taassurot qoldirib, uzoq muddat ko'ngillarda muhrlanib qoladigan bo'ldi.



JARANGLASIN YOSHlar OVOZI!

Sentabr oyini qaysidir ma'noda harbiy-vatanparvarlik oyi, deb bemaolol aytish mumkin. Chunki kuzning dastlabki kunlari mustaqillik bayrami bilan boshlanib, bu bayram kursantlikka qabul qilingan yuzlab yoshlarning Vatanga qasamyod qabul qilish marosimi hamda Mudofaa vazirligi huzuridagi "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolariga ko'krak nishonlarini tantanali topshirish tadbirlariga ulanib ketdi.

"Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilaridan iborat bu harakatning tashkil etilganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ammo qisqa davr oralig'ida harakat nafaqat respublikamiz miqyosida, balki xalqaro darajada ham e'tirofga loyiq natijalarga erishmoqda. Yaqinda o'zbekistonlik yoshlar Qozog'istonda bo'lib o'tgan xalqaro "Aygen – 2023" musobaqasida faxrli 2-o'rinni egallab qaytdi. Ellikka yaqin jamoa qatnashgan harbiy-vatanparvarlik musobaqasida debutant jamoaning bunday natijani qo'lga kiritishini g'alabaga teng yutuq sifatida qabul qildik.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 2-mart sanasida qabul qilingan 150-sonli qarori asosida tashkil etilgan harbiy-vatanparvarlik harakati tez fursatda shu qadar keng quloq yozdiki, uning safini bugungi kunda yuz minglab yoshlar qamrab oldi. O'tgan davr mobaynida harakat yoshlarining maxsus kiyimi va ko'krak nishoni ta'sis etildi. Joylarda faoliyat olib borayotgan har bir "Vatan tayanchi" otryadi faollaridan bir nafariga oliy harbiy ta'lim muassasasiga imtiyozli yo'llanma berilishi belgilab qo'yildi. Bunga javoban umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilaridan tashkil topgan otryad yoshlarining ovozi "Vatan oldida tantanali va'da berish" tadbirlarida yanada baralla eshitilmoqda.

*Qurolim mehr-la ko'ksimga qo'yib,
Diyorim nomini qalbimga o'yib,
Xalqimni, elimni jonimdan suyib,
Ona Vatanimga xizmat qilaman!*



**Guljahon XO'JAYEVA, Olmazor tumani
15-umumta'lim maktabi 11-sinf o'quvchisi:**

– Men va tengdoshlarim bugun "Vatan tayanchi" otryadi a'zosi sifatida o'zimizga bo'lgan ishonch, matonat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, faollik, bilimdonlik, dadillik kabi bir qator ijobiy xislat va jihatlarimizni namoyon qilamiz, deb baralla ayta olaman. Shuningdek, oilamiz, tengdoshlarimiz, Vatanimiz hamda jamiyatimiz oldidagi burchimizni chuqur anglab, kelgusida bizni mas'uliyatli vazifalar kutib turganini ishonch bilan ayta olaman. "Vatan tayanchi" harakati – bu bir oila. Biz ushbu oilaga jipslashgan holda bilimimiz, shijoatimiz va iqtidorimizni ishga solib, bildirilgan ishonchni oqlashga bor kuchimiz bilan harakat qilamiz. Ona Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilamiz!

Poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va Qurolli Kuchlar davlat muzeyi oldidagi "Vatanga qasamyod" haykali poyida – Nurbek Baratov, Akbarxo'ja Mutalov, Doston Ubaydullayev, Guljahon Xo'jayeva, Omina Ismoilova kabi yoshlar tomonidan berilgan bu kabi tantanali va'da o'ziga xos tarzda jarangladi. Harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari, yoshlar ishtirok etgan ushbu tadbirlarda harbiy-vatanparvarlik ruhi maktab o'quvchilari orasida qanchalik yuqori ekanligiga guvoh bo'ldik. Yoshlar mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev hamda faxriylardan ko'krak nishonini qabul qilib olar ekan, o'zlarini haqiqiy harbiy xizmatchilardek tutganligi e'tiborga molik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatining respublikamiz va xalqaro miqyosdagi yutuqlari amalda ham, ularning harakatlarida ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Poytaxtimizda bo'lib o'tgan tantanali va'da berish marosimlarini jamoatchilik katta qiziqish bilan kuzatdi. Ular orasida "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va Qurolli Kuchlar davlat muzeyiga tashrif buyurgan xorijlik mehmonlar ham bor edi. Xitoydan kelgan ikki nafar sayyoh jarayonni kuzatish uchun tadbir tashkilotchilaridan ruxsat so'rab, murojaat qilishini ko'rib, ijodiy guruhimiz bilan faxrlanib ketdik. Chunki xitoylik mehmonlar O'zbekistonda ana shunday bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyat olib borayotgani haqida o'z yaqinlariga so'zlab berishini tasavvur qilish qiyin emasdi.

Kamoliddin ASROR

24-sentabr kuni erta tongdan mamlakatimiz sportchilari XIX yozgi Osiyo o'yinlarining bir qator sport turlari bo'yicha bahslarida ishtirok etdi va O'zbekiston delegatsiyasi dastlabki medalga ega bo'ldi. Ilk medal "Pochin" akademik eshkak eshish bo'yicha ayollar o'rtasida yengil vazn toifasidagi juftlik dasturida ishtirok etgan Luizaxon Islomova hamda Malika Tagmatova hisobiga yozildi. Hamyurtlarimiz murosasiz kechgan final dasturida marra chizig'ini ikkinchi bo'lib kesib o'tib, XIX yozgi Osiyo o'yinlarining kumush medali bilan taqdirlanishdi. Sport delegatsiyamizning ikkinchi medaliga ham akademik eshkak eshuvchilar, erkaklar o'rtasida yengil vaznli sportchilar bahsida qatnashgan Shahzod Nurmatov hamda Sobirjon Safaraliyev sazovor bo'ldi. Juftlik shiddatli poyga natijasida bronza medaliga ega chiqdi. G'oliblik shohsupasiga ko'tarilishni esa MVSM dzyudochisi Diyora Keldiyorova boshlab berdi. -52 kg vazn toifasida bahs olib borgan sportchimiz barcha raqiblarini, jumladan finalda BAA vakili Birshelt Xorlodoini mag'lubiyatga uchratdi. MVSM dzyudochisi g'alabasi sharafiga "Xanchjou – 2022" da O'zbekiston bayrog'i yuksak ko'tarilib, madhiyamiz yanqardi!

AKADEMIK ESHKAK ESHISH

Yurtimiz sportchilarining XIX yozgi Osiyo o'yinlaridagi ishtirokini akademik eshkak eshuvchilar boshlab berdi va bahslarni yakunladi. Sportchilarimiz musobaqa davomida 2 ta oltin, 4 ta kumush va bitta bronza medalni qo'lga kiritib, mazkur dasturda Xitoydan so'ng 2-o'rinni egalladi. Ushbu muvaffaqiyatga armiyamiz sportchisi Shahboz Xolmirzayev ham o'z hissasini qo'shdi. U dastlab Mehrojbek Mamatqulov bilan birga mazkur sport turining M2x dasturida ishtirok etdi va juftlik yakunda kumush medalni qo'lga kiritdi. Ertasi kuni esa Shahboz akademik eshkak eshish bo'yicha M4X yo'nalishida Shahzod Nurmatov, Mehrojbek Mamatqulov va Sobirjon Safaraliyev bilan birga to'rtlik bahslarida qatnashib, delegatsiyamiz hisobiga yana bir kumush medalni taqdim etdi. Hisobimizdagi yana bir kumush medal M2- dasturida qatnashgan sportchilarimiz Shehroz Hakimov hamda Dilshodjon Xudoyberdiyevga tegishli bo'ldi.

Musobaqalarning ikkinchi kungi dasturi akademik eshkak eshuvchilarimiz uchun yanada muvaffaqiyatli bo'ldi. Ayollar o'rtasida o'tgan yakkalik dasturida hamyurtimiz Anna Prakaten MVSM dzyudochisi Diyora Keldiyorova boshlab bergan g'oliblik shohsupasiga ko'tarilishni davom ettirdi – musobaqaning oltin medali bilan taqdirlandi. Ushbu sport turining M4- yo'nalishida qatnashgan Shehroz Hakimov, Davrjon Davronov, Dilshodjon Xudoyberdiyev va Alisher Turdiyevdan iborat kvartetimiz ham marra chizig'ini birinchi bo'lib kesib o'tdi – oltin medalni qo'lga kiritdi. Shu tariqa akademik eshkak eshuvchilarimiz Osiyo o'yinlaridagi ishtirokini yakunladi.

DZYUDO

Barcha yirik musobaqalarda bo'lgani kabi yurtimiz dzyudochilari XIX yozgi Osiyo o'yinlaridagi qatnashuvini ham faollik bilan boshlashdi. Diyora Keldiyorovadan so'ng MVSM vakili Gulnoza Matniyazova ham "Xanchjou – 2022" o'yinlari shohsupasiga ko'tarildi. Ta'kidlash joiz, Gulnoza Matniyazova o'z faoliyati davomida ikkinchi bor Osiyo o'yinlarining bronza medaliga sazovor bo'ldi. -70 kg vazn toifasida kurashgan sportchimiz hal qiluvchi bahsda Xitoy Taipeyi vakili Yu Jung Liaoni mag'lubiyatga uchratdi. Aslida dzyudo bo'yicha terma jamoamizning "Xanchjou – 2022"dagi ilk medaliga Halima Qurbonova (-48 kg) mualliflik qildi. U bronza medali uchun bahsda janubiy koreyalik Xekeong Liga qarshi tatamiga chiqishi kerak edi. Biroq raqib sportchi kurashmagani uchun hamyurtimiz sovrindorlar qatoridan joy oldi.

O'zbekiston delegatsiyasi bayroqdori Muzaffarbek To'raboyev "Xanchjou – 2022"da o'ziga bildirilgan ishonchni to'liq oqladi. U -100 kg vazn toifasida chempionlikni qo'lga kiritib, O'zbekiston delegatsiyasining ushbu Osiyo o'yinlaridagi g'aznasini yana bir oltin medal bilan boyitdi. To'raboyev qiziqarli kechgan final bahsida mo'g'ulistonlik Gonchigsuren Batxuyagni mag'lubiyatga uchratdi. Hamyurtimiz Murodjon Yo'ldoshev ham o'z chiqishlari bilan mutaxassislar e'tiborini qozondi. -73 kg vazn toifasida tatamiga chiqqan polvonimiz chempionlik bahsida katta tajribaga ega yaponiyalik Soichi Xashimotodan ham ustun keldi.

MVSM safida ekanligida "Tokio – 2020" yozgi Olimpiada o'yinlari va jahon chempionatining sovrindori bo'lgan, uzoq muddat o'z vaznida IJF reytingini boshqarib borgan nomdor sportchimiz Davlat Bobonov "Xanchjou – 2022"da kumush medal bilan cheklandi. -90 kg vazn toifasidagi polvonimiz final bellashuvda qirg'izistonlik Yerlan Sherovga imkoniyatni boy berdi.

Eng og'ir vazn toifasida tatamiga chiqqan dzyudochimiz Alisher Yusupov ham Osiyo o'yinlari sovrindorlari qatoridan joy oldi. Yurtdoshimiz bronza medal uchun kechgan bellashuvda yaponiyalik Xyoga Oga ustidan g'alaba qozondi. Dzyudochilarimiz hisobidagi yana bir bronza medalga Irisxon Qurbonboyeva (-78 kg) sazovor bo'ldi. Hamyurtimiz 3-o'rin uchun bahsda mo'g'ulistonlik Xuslen Otgonbayarni mag'lub etdi. Yana bir polvonimiz Sardor Nurillayev (-66 kg) ham sovrindorlar safidan joy olishga juda yaqin bordi. Biroq u bronza medal uchun kechgan bellashuvda raqibiga imkoniyatni boy berib qo'ydi.

TAEKVONDO

Taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari qit'a va jahon miqyosidagi yirik musobaqalarda sovrindorlar safidan joy olishi keyingi paytda doimiylik kasb etmoqda. Bundan "Xanchjou – 2022" o'yinlari ham xoli bo'lmadi. Ayniqsa, tarkibida MVSM vakillari Jasur Jaysunov va Svetlana Osipova ham bo'lgan terma jamoamiz aralash jamoaviy bahslarning chorak finalida Gonkongni o'ta yirik – 101:4 hisobida mag'lub etishi o'ziga xos tarixiy voqelik bo'ldi. Terma jamoamizning Janubiy Koreyaga qarshi yarim finaldagi bahsi ham muxlis-u mutaxassislar e'tiborini tortdi. Juda qiziqarli va keskin kechgan bahs, afsuski, Janubiy Koreya g'alabasi bilan yakunlandi – 47:48. Shunga qaramay, Shuhrat Salayev, Jasur Jaysunov, Ozoda Sobirjonova va Svetlana Osipovadan iborat terma jamoamiz "Xanchjou – 2022"ning bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Hamyurtimiz Madinabonu Mannopova (-49 kg) yakkalik bahslarida bronza medalni qo'lga kiritdi. U dastlabki bosqichda Makao, chorak finalda Vietnam vakillarini mag'lubiyatga uchratib, yarim finalga yetib keldi. Reglamentga ko'ra, ushbu bosqich ishtirokchilari musobaqa medalini naqd qilishadi. Yarim finalda tailandlik Olimpiya chempioni Panipak Vongpattanakitga imkoniyatni boy bergan hamyurtimiz bronza medal bilan taqdirlandi. Eslatib o'tamiz, Madinabonu Mannopova o'tgan Osiyo o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritgan edi. Taekvondochimiz Charos Qayumova (-53 kg) ham bronza medalga sazovor bo'lib, o'z nomini sovrindorlar qatoriga yozdirib qo'ydi.

QILICHBOZLIK

O'zbekistonlik sportchilar Osiyo o'yinlarining qilichbozlik dasturida shu paytgacha biror marotaba shohsupaga ko'tarilmagan edi. Bu borada "Xanchjou – 2022"da tarixiy voqelik qayd etildi. Shpagachi qizimiz Dilnoz Murzatayeva Osiyo o'yinlarida shohsupaga ko'tarilgan birinchi o'zbekistonlik qilichbozga aylandi. 17 yoshli sportchimiz yarim final jangida janubiy koreyalik Injeong Choiga imkoniyatni boy berib, bronza medal bilan taqdirlandi. Ma'lumot

uchun, reglamentga ko'ra, taekvondo WTda bo'lgani kabi qilichbozlikda ham yarim finalda imkoniyatni boy bergan atletlar bronza medalga ega bo'lishadi.

MVSM vakili, delegatsiyamizning ikkinchi bayroqdori Zaynab Dayibekova ham "Xanchjou – 2022"da sovrindor bo'ldi. Sablya bo'yicha yakkalik dasturida ishtirok etgan armiyamiz sportchisi 1/8 finalda yaponiyalik Shihomi Fukushima 15:12, chorak finalda xitoylik Xengyu Yangni 15:12 hisobida mag'lub etdi. Yarim finalda janubiy koreyalik Jisu Yundga 14:15 hisobida yutqazgan sportchimizga bronza medal topshirildi.

PNEVMATIK MILTIQDA O'Q OTISH

10 metrdan pnevmatik miltiqdan o'q otish bo'yicha aralash jamoaviy dasturda ishtirok etgan sportchilarimiz Javohir Sohibov hamda Muxtasar Tohirova juftligi ham sovrindor bo'ldi. Saralashdan ikkinchi natija bilan o'tgan merganlarimiz oltin medal uchun kechgan final bahsida katta tajribaga ega xitoylik juftlikka imkoniyatni berdi va kumush medalni qo'lga kiritdi.

USHU

Sportchimiz Darya Latisheva qit'aning to'rt yillikdagi eng yirik musobaqasining bu galgisida ham shohsupaga ko'tarildi. U 2018-yilgi musobaqada kumush medal sohibiga aylangandi. Bu gal nankuan va nandao dasturlari yakuniga ko'ra, Xitoy hamda Malayziya vakillaridan keyin bronza medalga sazovor bo'ldi.

SARHISOB

XIX yozgi Osiyo o'yinlari medallari uchun kurash tobora qizg'in kechmoqda. Uch kunlik musobaqa mobaynida 45 ta davlatdan 23 ta mamlakat vakillari u yoki bu darajadagi sovrinlarga ega bo'lishdi. Umumiy hisobda 90 tadan ziyod medallar jamlanmasi o'z egalariga topshirildi. Xususan, akademik eshkak eshish, dzyudo, taekvondo, o'q otish, qilichbozlik, ushu sport turlarida qo'lga kiritilgan sovrinli o'rinlar tufayli "kichik Olimpiada" o'yinlarida O'zbekiston madhiyasi yangrab, bayrog'imiz yuksaldi. Xitoy sportchilari jami 86 ta (48 ta oltin, 25 ta kumush, 13 ta bronza) medal bilan umumjamoadi yetakchilik qilayotgan bo'lsa, ulardan keyingi pog'onani band etgan Janubiy Koreya delegatsiyasi 46 ta (7-19-14) medal bilan 2-o'rinda bormoqda. Yaponiya sportchilari 38 ta (6-18-14) medalga ega chiqqan holda 3-o'rinni band etib turibdi.

27-sentabr kungi musobaqa davomida suzish, velosport, qilichbozlik, dzyudo, o'q otish, taekvondo kabi sport turlarida 47 ta medal o'z egalarini topdi. Taekvondo bahslarida MVSM vakili Ulug'bek Rashitovning oltin, Feruza Sodiqovanning kumush medalni qo'lga kiritgani, shuningdek shaxmatchilarimiz Nodirbek Abdusattorov va Umida Omonova kumush, Javohir Sindorov bronza medalga sazovor bo'lgani, dzyudochilarimizning aralash jamoaviy musobaqalarda 2-o'ringan joy olgani to'rtinchi kunning eng e'tiborli holati bo'ldi. Mamlakatimiz sportchilari 6 ta oltin, 10 ta kumush, 12 ta bronza, jami 28 ta medal bilan umumjamoa hisobida 4-o'rinda bormoqda.

XIX yozgi Osiyo o'yinlari 8-oktabrga qadar davom etadi.

"PARIJ – 2024" SARI

(xabarlar)



ZAMONAVIY BESHKURASH



XIX yozgi Osiyo o'yinlarining zamonaviy beshkurash bahslarida qatnashgan hamyurtimiz Alise Faxrutdinova musobaqani 1 327 ochko bilan 7-o'rinda

tugatdi. Ushbu natija Faxrutdinovaga "Parij – 2024" yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmasini taqdim qildi. Shuningdek, "Xanchjou – 2022"ning yana 8 ta sport turi bo'yicha bahslarida yuqori natija ko'rsatayotgan sportchilar ham yo'llanma sohibiga aylanmoqda yoki qimmatli reyting ochkolariga ega bo'lmoqda.

SPORT KURASHLARI



Serbiya poytaxti Belgrad shahrida sport kurashlari bo'yicha navbatdagi jahon chempionati o'tkazildi. Yunon rum

kurashchilarimizdan Jasurbek Ortiqboyev (-55 kg) hamda Islomjon Bahromov (-60 kg) o'z vazn toifasida bronza medal va "Parij – 2024" yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ortiqboyev 3-o'rin uchun kechgan bahsda moldovalik Artyom Delenauni 6:1 hisobida dog'da qoldirdi va faoliyatida ketma-ket ikkinchi bor dunyo birinchiligining bronza medaliga ega chiqdi. Bahromov esa bronza medal uchun kechgan bahsda eronlik Mehdi Moksennajedni mag'lub etdi. Bungacha erkin kurashchimiz Javrail Shapiyev (-86 kg) va yunon-rum kurashchimiz Aram Vardanyan (-77 kg) ham 4 yillikning eng nufuzli musobaqasi ishtirokchisiga aylangandi. Ta'kidlash joiz, Shapiyev faoliyatida ikkinchi bor Olimpiya o'yinlari yo'llanmasiga ega bo'ldi.

PARA TAEKVONDO



Meksikaning Verakrus shahri "Parij – 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlarining reyting ochkolarini taqdim etishi bilan ham ahamiyatli bo'lgan jahon chempionatiga mezbonlik qildi. Para taekvondochilarimiz chempionatni 2 ta oltin, bittadan kumush va bronza, jami 4 ta medalga sazovor bo'lgan tarzda yakunlashdi. Ushbu natija hamyurtlarimizning 72 ta davlat orasida umumjamoa hisobida 1-o'ringa sazovor bo'lishini ta'minladi. Musobaqa yakunida terma jamoamiz bosh murabbiyi Bobur Qo'ziyev "Jahon chempionatining eng yaxshi murabbiyi" deb e'tirof etildi.

PARA O'Q OTISH



Peru poytaxti Lima shahrida para o'q otish bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tdi. Ayollar o'rtasida P2 klassida 10 metr masofaga to'p panchadan otish bahslarida qatnashgan hamyurtimiz Shaxnoza Mamajonova kuchli beshlikdan joy oldi va ushbu natija orqali "Parij – 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlariga to'g'ridan to'g'ri litsenziyani qo'lga kiritdi. Ta'kidlash joiz, vakilimiz jahon chempionatida o'z klassida osiyolik sportchilar orasida eng yaxshi natijani qayd etdi. Eslatib o'tamiz, bundan avval boshqa bir sportchimiz Server Ibragimov ham para o'q otish bo'yicha "Parij – 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritgan edi.

Yagona maqsad ostida birlashtirdi

Profilaktik hisobda turgan hamda uyushmagan yoshlar bilan tizimli o'tkazib kelinayotgan "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik yig'inining navbatdagisi Qashqadaryoda ham yuqori saviyada o'tkazildi.



Qarshi shahridagi Yoshlar markazi binosida viloyatning barcha tumanlaridan jam bo'lgan 100 dan ortiq ishtirokchiga mas'ullar tomonidan tushuntirishlar berildi. Shundan so'ng Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Nuriston qo'rg'onida joylashgan harbiy qism tomon yo'l olindi. Malakali harbiy shifokorlar tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan yoshlarga harbiy kiyim-boshlar tarqatilib, ushbu libosga munosib bo'lish alohida uqtirildi.

Tantanal marosimda so'z olganlar yoshlarni yig'in davomida harbiylardan tartib-intizom, sadoqat va shijoat singari er-yigitni bezovchi sifatini o'rganishga undadilar. Belgilangan reja asosida jismoniy tayyorgarlik mashqlari, tarix fani saboqlari, malakali mutaxassislar tomonidan biznes treninglar, kasbga o'qitish singari mashg'ulotlar ishtirokchilarni har jihatdan tobladi, desak, adashmaymiz.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni bilan uchrashuv esa yoshlar yodida bir umrga saqlanib qolishi aniq. Do'stona muloqot ruhida boshlangan suhbat avvalida qo'mondon yoshlarga bolalikdan generallikkacha bosib o'tgan yo'li haqida so'zlab berdi. Samimiy uchrashuv davomida xato yo'lga kirib qolib, profilaktik hisobda turgan hamda uyushmagan yoshlar o'zlarini qiziqirgan savollariga javob olishdi.

Yurt tinchligi, sarhadlar daxlsizligi uchun qancha insonlar tinimsiz mehnat qilayotgani, uyqusiz tunlarni tonglarga ulayotganini ko'rgan ertamiz egalari o'zlarida daxldorlik hissini tuyganliklarini samimiy so'zlarida ifoda etdilar.

Yakunda tashkil etilgan marosimda yig'in davomida o'tkazilgan turli sport va bilim bellashuvlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar tantanal taqdirlandilar. Shuningdek, o'zini ijobiy xulqi bilan ko'rsata olgan bir guruh

yoshlarni profilaktik hisobdan chiqarish bo'yicha tavsiyanomalar tarqatildi. Yig'inda ishtirok etish uchun Mirishkor tumani "Chandir" mahalla fuqarolar yig'inidan tavsiya etilgan Xudoyshekur Qurbonniyozov o'tgan 10 kuni haqida to'lqinlanib so'zladi:

– Harbiylar bilan bir safda turib, ular tuygan hislarni oz bo'lsa-da, tanimizda his etganimizning o'zi biz uchun bir umrlik saboq bo'ldi desam, adashmayman. Harbiy akalarimiz bilan suhbatlashib, oldimga maqsad qo'yishni o'rgandim. Mana shu 10 kunlik "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik yig'inidan o'zim qilgan xatolarni takrorlamaslik uchun jasorat topdim, deb hisoblayman va buni yurt ravnaqiga qo'shgan hissam bilan isbotlayman.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu yig'in turli muhitda, turfa sharoitlarda ulg'aygan yoshlarni vatanparvarlik hissini mustahkamlashdek yagona maqsad ostida birlashtirdi.



HAMKORLIK

Bir maqsad yo'lida

Qirg'iziston Respublikasining Issiqko'l viloyatida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyati (DOSAAF) markaziy kengashining navbatdagi XII plenumi bo'lib o'tdi.



Rossiya, Belarus, Armaniston, Qirg'iziston va O'zbekistonning mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilotlari rahbarlari ishtirok etgan ushbu plenumdagi muasasalar kengashi raisi Husan Botirov so'zga chiqib, DOSAAFning 100 yilligi munosabati bilan MDH miqyosida sport musobaqalari tashkil etilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida har yili o'tkazilayotgan "Rally Muynak" xalqaro avtomobil musobaqasida tashkilotlar sportchilarining ishtirokini ta'minlash hamda asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashishga qaratilgan videoanjumanlar o'tkazib borishni taklif qildi. H.Botirovning ushbu takliflari barcha ishtirokchilar tomonidan iliq kutib olindi.

Shuningdek, tashkilotlar rahbarlari o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga doir takliflarini bildirdilar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi raisi Husan Botirov so'zga chiqib, DOSAAFning 100 yilligi munosabati bilan MDH miqyosida sport musobaqalari tashkil etilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida har yili o'tkazilayotgan "Rally Muynak" xalqaro avtomobil musobaqasida tashkilotlar sportchilarining ishtirokini ta'minlash hamda asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashishga qaratilgan videoanjumanlar o'tkazib borishni taklif qildi. H.Botirovning ushbu takliflari barcha ishtirokchilar tomonidan iliq kutib olindi.

Plenum yakunida kun tartibidagi masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

Plenum ishtirokchilari uchun Qirg'iziston Respublikasi mudofaa sport-texnik tashkiloti (OSTO) tasarrufidagi muassasalarga tashrif uyushtirildi. Tashrif davomida ular muassasalarning o'quv moddiy-texnik bazasi bilan tanishdilar. Xususan, avtomototransport haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida erishilgan ilg'or tajribalar bo'yicha fikr almashdilar.

Ma'lumot uchun: 1927-yilda sobiq Ittifoq tarkibidagi o'lkalarda Mudofaa, aviatsiya va kimyo sanoatiga ko'maklashuvchi jamiyat (OSOAVIAXIM) tashkil etilgan bo'lib, 1951-yilda ushbu tashkilot Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyati, ya'ni DOSAAFga aylantirilgan. Tashkilotning vazifasi aholi orasida harbiy-vatanparvarlik targ'ibotini olib borish, yoshlarni sport bilan shug'ullantirish va ularni harbiy kasb mutaxassisliklariga tayyorlab, harbiy xizmatga jo'natishdan iborat bo'lgan.

1991-yil 23-noyabrda bo'lib o'tgan Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyatining VIII Qurultoyi qarori bilan O'zbekistondagi DOSAAF negizida O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti jamoat birlashmasi sifatida tashkil etilgan.

MDH DOSAAF ittifoqiga 1992-yil sentabr oyida Toshkent shahrida asos solingan bo'lib, hozirda unga Rossiya, Belarus, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston a'zo.

RAKETAMODEL

Olamshumul g'alaba

Qozog'iston Respublikasining Baykonur shahrida raketamodel sporti bo'yicha "Baykonur kosmodromi kubogi" ochiq xalqaro musobaqasi va "Korkit-Ata" jahon kubogi bosqichi bo'lib o'tdi.



Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Belarus respublikalari terma jamoalaridan 200 nafarga yaqin sportchi ishtirok etgan ushbu musobaqalarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat milliy terma jamoa mamlakatimiz sha'nini munosib himoya qildi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bellashuvlarda turli mamlakatlardan kelgan mohir sportchilar o'zlari tomonidan yaratilgan raketa modellari va ularning ochiq osmonda parvoz qilish imkoniyatlarini namoyon etdilar.

Quvonarlisi, har ikkala xalqaro musobaqalarda jamoa hisobidan O'zbekiston terma jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritib, tashkilotchilar va butun dunyo raketamodel sporti ixlosmandlari olqishlariga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, shaxsiy hisobda bo'lib o'tgan bahslarda "Vatanparvar" tashkiloti sportchilari quyidagi yuqori o'rinlarni egalladilar:

"Baykonur kosmodromi kubogi" ochiq xalqaro musobaqasida:

1. Siddiqjon Yo'ldoshaliyev: kumush medal (*Namangan v.*).
2. Shamsiddin Bafoyyev: kumush medal (*Buxoro v.*).
3. Akmaljon Abidov: kumush medal (*Andijon v.*).
4. Najmiddin Zaylidinov: bronza medal (*Namangan v.*).
5. Hayotbek Qurbonaliyev: bronza medal (*Namangan v.*).
6. Dilshod Nig'murodov: bronza medal (*Buxoro v.*).

"Korkit-Ata" jahon kubogi bosqichida:

1. Najmiddin Zaylidinov: oltin medal (*Namangan v.*).
2. Sardor Ro'ziyev: oltin medal (*Buxoro v.*).
3. Feruz Bahodirov: oltin medal (*Buxoro v.*).
4. Olga Ibragimova: ikkita oltin medal (*Sirdaryo v.*).
5. Farhod Bakiyev: oltin medal, kumush medal (*Samarqand v.*).
6. Siddiqjon Yo'ldoshaliyev: kumush medal (*Namangan v.*).
7. Dilshod Nig'murodov: kumush medal (*Buxoro v.*).
8. Rashid Kashayev: kumush medal, bronza medal (*Qoraqalpog'iston R.*).
9. Akmaljon Abidov: bronza medal (*Andijon v.*).

"Vatanparvar" tashkiloti jamoasi xalqaro nufuzli musobaqalarda 6 ta oltin, 7 ta kumush va 5 ta bronza medal bilan qaytgan sportchilarini samimiy qutlaydi.



OCHIQ ESHIKLAR KUNI

"Vatanparvar" tashkiloti yoshlarga o'z eshiklarini ochdi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Urganch tumani o'quv sport-texnika klubida "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!" shiori ostida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.



Tadbirda mahallalarda istiqomat qilayotgan yoshlar va umumta'lim maktablarining o'quvchilari ishtirok etdi.

Yoshlarga "Vatanparvar" tashkiloti tarixi, bugungi kunda tashkilot tomonidan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar va imtiyozlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Tashkilotning sport seksiyalari ko'rgazmalari namoyishi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Tadbir davomida yoshlar "Vatanparvar" tashkilotining avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kursi faoliyati, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan o'quv xonalari va trenajyorlar bilan tanishdilar.

Tadbir so'ngida o'quvchilar o'rtasida sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi.



Bugungi kunda harbiy-
vatanparvarlik tarbiyasi,
texnik mutaxassislar
hamda ommaviy kasbdagi
xodimlar tayyorlash,
sportning texnik va amaliy
turlarini rivojlantirish
borasida O'zbekiston
Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkilotining
Toshkent viloyati kengashi
tasarrufidagi Bekobod
shahri o'quv sport-texnika
klubi jamoasi ham ibratli
ishlarni amalga oshirmoqda.

IBRATLI ISHLAR SAMARASI



Xususan, zamon talablari asosida haydovchilar tayyorlashga e'tibor qaratayotgan klub jamoasining 2023-yilning o'tgan oylari mobaynida erishgan muvaffaqiyatlarini ta'kidlash joiz. Bunga ko'ra, 362 nafar "B", "BC" toifali haydovchi tayyorlashga erishildi. Shu kunlarda ham bu yo'nalishdagi faoliyat yanada rivojlantirilib, bo'lajak haydovchilarning yetarli darajada bilim olishlari uchun ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Albatta, turli rasmidagi o'quv-mashq avtomobillari ular ixtiyorida.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda sportni rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. Shu munosabat bilan mazkur o'quv sport-texnika klubida ham salmoqli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, yoshlar o'rtasida turli sport musobaqalari o'tkazilyapti. Ayni paytda klub qoshida "Yozgi biatlon", "Havo miltig'idan o'q otish" kabi sport seksiyalari ishlab turibdi. To'garak a'zolari shahar va viloyat musobaqalarida ishtirok etib, yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqda.

– Tashkilotimizda yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash borasida samarali faoliyat olib borilmoqda, – deydi O‘STK boshlig‘i vazifasini bajaruvchi Alisher Dehqonov. – Shu boisdan shahar hokimligi, mudofaa ishlari, xalq ta’limi bo‘limlari va harbiy qismlar bilan birgalikda chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlar va chaqiriluvchilarni xizmatga chaqirish davrida olib boriladigan tashkiliy-ommaviy va tarbiyaviy ishlarning qo‘shma rejasi ishlab chiqilgan. O‘z navbatida, chaqiriluvchilar o‘rtasida “Shunqorlar” harbiy sport musobaqasi muntazam o‘tkazilmoqda. Shuningdek, muhim sanalarga bag‘ishlab 32 marotaba harbiy qismlar, Milliy gvardiya, Respublika Ma’naviyat-ma’rifat markazi shahar bo‘limlari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi. Bundan tashqari, 34 marotaba yo‘l harakati targ‘iboti, 17 marotaba sport tadbiri o‘tkazilib, ularda ming nafardan ziyod fuqaro hamda o‘quvchi-yosh ishtirok etdi. Xususan, “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!”, “Milliy armiyamiz Yangi O‘zbekistonning mustahkam

qalqonidir!”, “Uch avlod uchrashuvi”,
“Biz vatanparvarlarmiz!”, “Vatanparvar”
– mening tanlovim!”, “Yangi O‘zbekiston
yoshlari, birlashaylik!” kabi mavzulardagi
tadbirlar shular jumlasidandir. Bunday
mavzularda tashkil etilgan davra suhbatlari
va uchrashuvlar yoshlarimizning ma’naviy
kamolotida muhim burilishlar yasadi, desak,
mubolag’a bo‘lmaydi. Bundan tashqari,
mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligi
munosabati bilan shahardagi umumta’lim
maktablari o‘quvchilari va klub a’zolari
o‘rtasida havo militg‘idan o‘q otish bo‘yicha
musobaqa o‘tkazilib, g‘oliblikni qo‘lga kiritgan
jamoyalarga tadbir tashkilotchilarining faxriy
yorliq va esdalik sovg‘alari topshirildi.
Ishonchimiz komilki, o‘tkazilgan barcha
tadbirlar ishtirokchilarda katta taassurot
qoldirdi.

Ayni paytda ham O‘STK jamoasi barcha yo‘nalishdagi ibratli ishlarini izchil davom ettirmoqda.

Akbar ALLAMURODOV



Jangovar ruh –



JANGCHINING QUDRATLI QUROLI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligiga bag'ishlanadi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvar" gazetasi va "O'zbekiston armiyasi" jurnali o'quvchilari, harbiy xizmatchilar, jurnalist, yozuvchi va professional ijodkorlar o'rtasida jangovar ruhni oshirish, milliy armiyamiz qo'shinlarining harbiy qudrati, jangovar saflarda xizmat qilayotgan Vatan himoyachilarining fidoyiligi, jasorati, xizmat vazifasini bajarish chog'ida qahramonlarcha halok bo'lgan yigitlar xotirasini abadiylashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning yuksak ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik sifatlarini oshirish, ular qalbida Vatanga muhabbat, Qurolli Kuchlardan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg'ularini kamol toptirish, ulug' sarkardalarimiz hayoti va faoliyati, qahramonliklari, boy merosini targ'ib qilish orqali harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyati "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" deb nomlangan publitsistik maqolalar tanlovini e'lon qiladi.

TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlar 2023-yilning 29-sentabridan 2023-yilning 15-dekabrigacha (*Word shaklida, 14 shriftda, kirill yoki lotin alifbosida*) "Vatanparvar" birlashgan tahririyatiga yuborilishi lozim.



Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.
Elektron manzil: vatanparvar-bt@umail.uz yoki telegram manzili (90) 968-62-08.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:
 – muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;
 – muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
 – muallifning xizmat (*ish*) joyi.



Murojaat uchun telefonlar:
 (71) 260-36-50, 260-32-57.

Eng sara ijodiy ishlar "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

G'oliblar quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:
 – 1-o'rin (*1 ta*) – bazaviy hisoblash miqdorining 25 (*yigirma besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
 – 2-o'rin (*2 ta*) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
 – 3-o'rin (*3 ta*) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
 – rag'batlantiruvchi mukofotlar (*5 ta*) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom va kitoblar to'plami.

Natijalar "Vatanparvar" gazetasi va saytida hamda mudofaa.uz saytining telegram kanalida e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2024-yil Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi.

"Vatanparvar"
birlashgan tahririyati

**– Biz
"Vatanparvar"ni tanladik.
Siz-chi?**

OBUNA – 2024

**"Vatanparvar" gazetasi nashr
ko'rsatkichi – 114**

**"O'zbekiston armiyasi" jurnali
nashr ko'rsatkichi – 1273**

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot

**SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI**

VATANPARVAR MUASSIS O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI www.mudofaa.uz	Tahririyat kengashi: general-mayor Hamdam Qarshiyev polkovnik Otabek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.	Bosh muharrir: podpolkovnik Ahror Ochilov ISSN 2010-5541 Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan. Telefonlar: kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29	Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Hojimurodova Sahifalovchi: Begali Eshonqulov Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva Buyurtma: V-5604 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 31 498 nusxa Bosishga topshirish vaqti: 14:00 Topshirildi: 14:30 Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.	Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan. Nashr ko'rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy. 1 2 3 4 5 6 Manzilimiz: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.
--	---	--	---	---